

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakulteti bitiruvchisi Axmedova Dilnoza tomonidan “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy raxbar**

## **XULOSASI**

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilim, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy- ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy - ahloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero yurtning istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashni ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liq Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida, muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishning kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va milliy mentalitetimizni, qadriyatlarimizni hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali va ijobiy natija beradigan uslub hamda vositalarini ishlab chiqish lozim. Ayniqsa pedagogika oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitishni ana shunday yangi texnologiyalar asosida o'qitilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. An'anaviy o'qitishdan noan'anaviy o'qitishga pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'tiladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi pedagogik jarayonni boshqarishda va tashkil etishda texnologiyalarni samarali qo'llay olish va shu asosda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish belgilab olingan.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda uning o'ni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan ta'lim faoliyati.

Pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda texnologiyalarning mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishi quyudagi vazifalarni hal etisni o'z oldiga maksad kilib olgan;

- pedagogik, psixologik va turli metodik adabiyotlardan muammoning o'rganilganlik holatini aniqlash hamda ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning dolzarbligini asoslash;
- ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning pedagogik faoliyati mazmunini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishning pedagogik faoliyati sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib ko'rish va eng samarali usullarni tahlil qilish;
- ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan usullarini aniqlash va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy faraz ilgari surilgan:

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida texnologiyalarning o'rni va ahamiyati aniqlansa, mazkur jarayon aniq pedagogik shart-sharoitning hamda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muayyan texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilsa ko'zlangan natijaga, ya'ni talabalarning ta'lim jarayonida chuqur bilimga ega bo'lishlariga erishish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagicha tartiblangan:

1. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati aniqlansa ushbu mavzu dolzarb pedagogik muammo ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi;
2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanish uchun tavsiyalar beriladi;
3. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'rganiladi;
4. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'rni va ahamiyati yuzasidan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, 5 ta paragraf, boblarga xulosadar, tajriba-sinov natijalari, umumiy hulosalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur bitiruv malakaviy ishi DAK talablariga to'liq javob beradi va uni ochiq himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar**

**p.f.d, prof. B.Umarov**

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-  
psixologiya fakulteti bitiruvchisi Axmedova Dilnoza tomonidan “TA’LIM  
TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH  
MUAMMOLARI” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Taraqqiyot taqdirini ma`naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma`naviy barkamollik bilim, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy- ma`naviy salohiyat ma`rifatli insonning ikki qanotidir.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy - ahloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero yurtning istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashni ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liq Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida, muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Tadqiqotchi Axmedova Dilnoza bitiruv malakaviy ishning maqsadi pedagogik jarayonni boshqarishda va tashkil etishda texnologiyalarni samarali qo'llay olish va shu asosda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish belgilab olingan.

Ta`lim jarayonini texnologiyalashtirishda uning o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan ta'lim faoliyati.

Pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda texnologiyalarning mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishi quyudagi vazifalarni hal etisni o'z oldiga maksad kilib olgan;

- pedagogik, psixologik va turli metodik adabiyotlardan muammoning o'rganilganlik holatini aniqlash hamda ta`lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning dolzarbligini asoslash;

Ishni bitiruv malakaviy ishi talablariga to'liq javob beradi teb hisoblayman va ochiq himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:**

**dots.A.Meliboyev**

**Maktabgacha ta'lim nazariyasi va  
uslubiyati kafedrasini mudiri**

**A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika - psixologiya fakulteti bitiruvchisi Axmedova Dilnoza tomonidan “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Hozirgi kun talabi o'qitishning yangicha ko'rinishini namoyon qilishdan iborat bo'lib, bu muammo ustida bir qator olimlar ish olib bormoqdalar. Pedagoglar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining turli jihatlarini atroflicha keng batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratdi. Ular o'qituvchi shaxsining barcha jihatlarini o'z ichiga oluvchi professiogrammani yaratdilar. Unda har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan tavsifnomasini nazarda tutgan professiogramma tuzildi. Unga o'qitish ham nazarda tutilgan albatta.

Bugungi kunda afsuski ta'lim sohasida ma'lum miqdorda salbiy holatlarning vujudga kelishini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan ba'zi pedagoglarning to'la-to'kis va keng qamrovli dars jarayonini tashkil etmayotganligini, talaba - uquvchilarning ahloqiy, ma'naviy, estetik va madaniy balimlarining pasayib ketishi, fundamental bilim maskani, ya'ni ayrim maktablardagi ta'lim jarayoni sustlashib ketayotganligi natijasida o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim saviyasi pastligini kuzatishimiz mumkin. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning dunyoqarashining torligi va ma'naviy qashshoqlik alomatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqotchi Axmedova Dilnoza bitiruv malakaviy ishning maqsadi pedagogik jarayonni boshqarishda va tashkil etishda texnologiyalarni samarali qo'llay olish va shu asosda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish belgilab olingan.

Ishni bitiruv malakaviy ishi talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va ochiq himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:**

**D.shokirova  
Jizzax shaxar 9-maktab  
direktori**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI  
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

Dekani v/b \_\_\_\_\_ dots.R.Abdurasulov  
“\_\_30\_\_” \_\_may\_\_\_\_ 2014 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**“Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish  
texnologiyalari”** mavzusida bajarilgan

# **BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Bajaruvchi: Axmedova D**

**Ilmiy rahbar: p.f.d. prof. .B.Umarov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman p.f.d. prof. B.Umarov \_\_\_\_\_  
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI “Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi \_\_ sonli yig'ilish qarori bilan  
( 29, 09. 2014 y) himoyaga tavsiya etilgan

**Kafedra mudiri: I.X. To`raqulova**

**Jizzax – 2014**

# MUNDARIJA

**KIRISH.....**

**I-BOB. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH MUAMMOLARI.....**

1.1. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish texnologiyalari va ularni samarali  
qo`llashning ayrim jihatlari.....

1.2. Ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan  
foydalanish asoslari.....

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....

**II-BOB. PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA  
BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI, MAZMUNI VA  
AHAMIYATI .....**

2.1. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda zamonaviy axborot  
texnologiyalari vositasidan foydalanish.....

2.2. Pedagogik jarayonni boshqarishda interfaol texnologiyalarni samarali  
qo'llash.....

2.3. Ta'lim jarayonida innovasion boshqarish texnologiyalaridan foydalanish  
va uni baholash mezonlari.....

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....

**TAJRIBA-SINOV NATIJALARI.....**

**XULOSA VA TAVSIYALAR.....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....**

**ILOVA .....**

## KIRISH

*“Ta’lim-tarbiya jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo’lgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir”*

I.A.Karimov

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy, davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek ijtimoiy - iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo`naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Taraqqiyot taqdirini ma`naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma`naviy barkamollik bilim, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy- ma`naviy salohiyat ma`rifatli insonning ikki qanotidir.<sup>1</sup>

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy - ahloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero yurtning istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashni ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. TAT. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.-366

to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Zotan "Faqatgina chinakam ma`rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so`z bilan aytganda, o`zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o`ziga munosib obro`li o`rinni egallashi uchun fidoiyluk bilan kurashishi mumkin" <sup>1</sup>.

Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida, muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning fanlarni o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishishi, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Hozirgi kun talabi o'qitishning yangicha ko'rinishini namoyon qilishdan iborat bo'lib, bu muammo ustida bir qator olimlar ish olib bormoqdalar. Pedagoglar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining turli jihatlarini atroflicha keng batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratdi. Ular o'qituvchi shaxsining barcha jihatlarini o'z ichiga oluvchi professiogrammani yaratdilar. Unda har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan tavsifnomasini

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T., «O`zbekiston», 1991

nazarda tutgan professiogramma tuzildi. Unga o'qitish ham nazarda tutilgan albatta.

Turli pedagogik texnologiyalarning ishlab chiqilishining samarasi, foydasi shundaki, o'sib kelayotgan avlodni jamiyatga foydasi tegadigan har tomonlama etuk va barkamol shaxs sifatida davlatimizning keyingi rivojiga o'zini hissasini qo'sha oladigan etuk mutaxassis tayyorlashdan iboratdir. Mamlakatimiz istiqboli, xalqimizning ertangi kuni ko'p jixatdan farzandlarimizning qanday tarbiya olishiga bog'liq. Yurtboshimiz, "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" - deya alohida ta'kidlagan edi <sup>1</sup>.

Bugungi kunda afsuski ta'lim sohasida ma'lum miqdorda salbiy holatlarning vujudga kelishini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan ba'zi pedagoglarning to'la-to'kis va keng qamrovli dars jarayonini tashkil etmayotganligini, talaba - uquvchilarning ahloqiy, ma'naviy, estetik va madaniy balimlarining pasayib ketishi, fundamental bilim maskani, ya'ni ayrim maktablardagi ta'lim jarayoni sustlashib ketayotganligi natijasida o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim saviyasi pastligini kuzatishimiz mumkin. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning dunyoqarashining torligi va ma'naviy qashshoqlik alomatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishning kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va milliy mentalitetimizni, qadriyatlarimizni hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali va ijobiy natija beradigan uslub hamda vositalarini ishlab chiqish lozim. Ayniqsa pedagogika oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitishni ana shunday yangi texnologiyalar asosida o'qitilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. An'anaviy o'qitishdan noan'anaviy o'qitishga pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'tiladi.

Bularning barchasi fanni o'qitishda, ya'ni o'qitish jarayonida egallanishi kerak. Bunda pedagog texnologiyalaridan foydalanish samara beradi. Demak,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. TAT. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.-366

ta`lim jarayonida boshqarish texnologiyalaridan foydalanish zarurati qo'yilar ekan, ushbu dolzarb muammoni echimini izlash uchun tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini belgilab oldik.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:**

Pedagogik jarayonni boshqarishda va tashkil etishda texnologiyalarni samarali qo'llay olish va shu asosda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti:**

Ta`lim jarayonini texnologiyalashtirishda uning o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan ta'lim faoliyati.

**Tadqiqotning predmeti:**

Pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda texnologiyalarning mazmuni, shakli va usullari.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

- pedagogik, psixologik va turli metodik adabiyotlardan muammoning o'rganilganlik holatini aniqlash hamda ta`lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning dolzarbligini asoslash;
- ta`lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning pedagogik faoliyati mazmunini ishlab chiqish;
- ta`lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishning pedagogik faoliyati sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib ko'rish va eng samarali usullarni tahlil qilish;
- ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan usullarini aniqlash va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:**

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida texnologiyalarning o'rni va ahamiyati aniqlansa, mazkur jarayon aniq pedagogik shart-sharoitning hamda ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muayyan texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilsa

ko'zlangan natijaga, ya'ni talabalarning ta'lim jarayonida chuqur bilimga ega bo'lishlariga erishish mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati aniqlansa ushbu mavzu dolzarb pedagogik muammo ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi;

2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanish uchun tavsiyalar beriladi;

3. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'rganiladi;

4. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'rni va ahamiyati yuzasidan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi:**

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatuvchi fanlar, Jahon va Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, ilmiy asarlari, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini o'z ichiga olgan manbalar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risda»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi e'tirof etiladi.

### **Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:**

Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 bob, 5 ta paragraf, boblarga xulosadar, tajriba-sinov natijalari, umumiy hulosalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-BOB. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASH MUAMMOLARI**

### **1.1. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish texnologiyalari va ularni samarali qo`llashning ayrim jihatlari**

Ta'lim sohasidagi, ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifasi pedagogik jarayonni takomillashtirish orqali yosh avlodni bilimli har tomonlama yotuk mustaqil fikrlar oladigan barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatib o'tilganidek ta'lim va tarbiya faqatgina istiqbolli rejalar amalga oshirilgan hozirgi zamonda real shart-sharoit shundan iboratki, ta'limni yuqori sifatli adabiyotlar va ilg'or pedagogik, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Mafkura va uning shakllanishida ko'pgina ajdodlarimiz zahmat chekkan. Ayniqsa milliy - milliy ma'naviy qadriyatlarimiz Abu Bakr Abu Xorazmiy, Abu Abdullox Rudakiy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida chuqur o'rin egallagan. Budyodkorlik g'oyalari qadimdan hamma olimlarni qonuniy olimlarni diqqat markazida bo'lgan. Albatta bu boy tariximizni ulug'lagan bugungi o'zbek xalqimiz ham bu muammoni bir daqiqa ham esdan chiqargan emas. Jumladan Prezidentimiz I.A.Karimov ham Barkamol avlod tarbiyasiga ularning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor berib kelinmoqda.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha fanlarni o'qitishda g'oyaviy tarbiyani ya'ni milliy g'oyani talabalar ongiga va qalbiga singdirish lozim va mumkin. Chunki taraqqiyot kafti bo'lib, u o'zlikni anglashda dunyoni ilmiy bilishning asosidir.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov "Agar fanni ulkan daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizlarini tashkil etadi. Zero ildiz qanchalik

baquvvat chuqur ketgan bo'lsa daraxt shunchalik bark etib gullaydi, yashnaydi, ko'p xosil beradi”<sup>1</sup> degani fikrimizni tasdig'ini ifodalaydi.

Zamonaviy pedagogikada ta'limning umumiy shakllari (jamoaviy, guruh bo'lib, yakka tartibda) va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari (dars, fan, texnika to'garaklari, o'quvchilar ilmiy uyushmalari, sayohatlar) farqlanadi.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyliigi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Darsning asosiy tarkibiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *birinchi* elementi - tashkiliy qism;
- *ikkinchi* element - uyga berilgan yozma vazifalarni tekshirish;
- *uchinchi* element - o'quvchilar bilimni og'zaki tekshirish (yoki so'rash);
- *to'rtinchi* elementi - yangi materialni tushuntirish;
- *beshinchi* element - yangi materialni mustahkamlash;
- *oltinchi* element -uyga vazifa berish;
- *ettinchi* element - darsni uyushqoqlik bilan yakunlash.
- Darsning tuzilishlari quyidagi uch turda bo'lishi mumkin:

**An'anaviy dars tuzilishi:** so'rash, tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish.

**Zamonaviy dars tuzilishi:** didaktik (asosiy) va mantiqiy – psixologik.

**Zamonaviy dars tuzilishiga qo'shimcha:** motivlangan va uslubiy.

**A) Didaktik tuzilishi:**

1. Tayanch (avvalgi) bilimlarni va harakat usullarini faollashtirish.
2. Yangi tushuncha va harakat usullarini shakllantirish.
3. Bilimlarni qo'llash, bilish va ko'nikmalarni shakllantirish (maxsus

---

<sup>1</sup> **Каримов И.А.** Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т.: Ўзбекистон, 2005

takrorlash va mustahkamlash).

**B) Darsning mantiqiy-psixologik tuzilishi:**

1. Ma'lum bilimlarni tiklash va harok etish.
2. Talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yangi bilimlarni anglash va tushunish.
3. Bilim elementlari va harakat usullarini umumlashtirish.
4. Bilimlar va yangi harakat usullarini namunadagidek hamda o'zgartirilgan sharoit vaziyatlarida qo'llay olish.

**V) Darsda izlash faoliyat bosqichlari:**

1. Muammoli vaziyatni tashkil etish va muammoni qo'ya olish.
2. Taxminlar farazlarni ilgari surish va ularni asoslash.
3. Farazlarni isbot etish
4. Muammolarning to'g'ri hal etilganligini tekshirish.
5. Xulosalarni shakllantirish.
6. Bilimlarni notanish (nostandart) vaziyatlarda qo'llash

**G) Darsning motivlangan tuzilishi:**

1. O'quvchilarning diqqatini tashkil etish va boshqarish.
2. Faoliyat mazmunini sharhlash (izohlash).
3. Motivlangan holatlarni faollashtirish
4. O'quvchilar bilan hamkorlikda darsning maqsadini belgilash.
5. Maqsadga erishishda yutuqli vaziyatlarni vujudga keltirish.
6. O'quvchilarning harakatlarida ijobiy his-tuyg'ular va o'ziga ishonchni qo'llab-quvvatlash

**D) O'quv faoliyati tuzilishi:**

O'quv faoliyati = talab + motiv + o'quv harakatlari + o'zini-o'zi nazorat + o'zini-o'zi baholash

**E) Darslar tipologiyasi:**

- 1-tip - yangi materialni o'rganish darsi.
- 2-tip - bilimlar, ko'nikmalarni qo'llash va mukammallashtirish.
- 3-tip - bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.
- 4-tip - bilimlar va ko'nikmalarni tartibga solish va nazorat qilish.

5-tip - aralash dars.

**Muammolilik tamoyiliga** asosan darslar muammoli va muammoli bo'lmagan darslarga bo'linadi.

Darsning quyidagi ko'rinishlari mavjud: *suhbat dars, laboratoriya ishi, sinov, kinodars, kompyuter mashg'ulotlari*

**Nostandart (standart bo'lmagan) darslar:**

1. Musobaqa va o'yin shaklidagi darslar: *tanlov, turnir, estafeta, duel, QZK (KVN), tadbirli o'yin, rolli o'yin, krossvord, viktorina*

2. Ijtimoiy amaliyotda ma'lum bo'lmagan ish shakllari, janrlari va uslublariga asoslangan darslar: *tadqiq etish, ixtirochilik, birlamchi manbalar tahlili, sharh, «Aqliy hujum», itervyu, reportaj, taqriz*

3. Muloqotning og'zaki shaklini eslatuvchi darslar: *matbuot anjumani auksion, benefis, miting, vaqti chegaralangan munozara panorama, teleko'prik, bildirgi, muloqat, «jonli gazeta», og'zaki jurnal.*

4. O'quv materialini noan'anaviy tashkil etishga asoslangan darslar *donolik darslari, ochiq tan olish, «dubler harakat boshlaydi» darsi*

5. Xayoliylashgan darslar: *ertak dars, sovga dars, XXI asr darsi*

6. Muassasa va tashkilotlar faoliyatiga o'xshash asoslangan darslar: *sud, tergov, tribunal, patent byurosi, ilmiy kengash, muharrirlar kengaish.*

**“innovatsion texnologiyalar” o'quv xonasining ko'rinishlari.** Ta'lim muassasalarida innoatsion texnologiyalardan, interfaol uslublardan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalanib, noan'anaviy darslar tashkil etishda yoki «Pedagogik texnologiyalar» kursi ta'limida, guruhni o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv xona (auditoriya yoki sinf)lari jixozlarini, ayniqsa, xonadagi stollarni, magnitli doskasini va stullarni joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, xonadagi jihozlarning joylashgan tartiblari, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning shakli (yakkama-yakka, kichik guruhlarga ajratgan, guruhiyligi)ga, xarakteri va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyasi (yoki uslubi)ga mos ravishda o'zgartirish imkoniyatlari bo'lmog'i kerak.

O'qituvchining pedagogik mahoratida o'quv jarëni loyihalashning o'rni muhim. O'quv jarëni - shunday markazki, o'qituvchining har bir tafakkuri va harakatlari shu markaz atrofida aylanib, yana unga qaytib keladi. Har bir dars o'qitish jarayoniga o'zining, faqat unga xos bo'lgan hissasini qo'shadi.

Zamonaviy dars faqat o'qitishning metod va shakllari bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim-tarbiya, rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish, o'qituvchi va talaba faoliyatida birgalikdagi o'zaro bog'liqligini ro'yobga chiqarishni talab qiladi.

Dars, o'qituvchidan ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi.

O'qituvchining o'qitish vositalari uning ijodkorligiga, ko'p qirrali bilimiga, talabalarni sevish, faoliyatiga asoslanadi. Dars berishda o'qituvchining muvaffaqiyati uning nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi shu predmetga qarashli, psixologik-pedagogik, metodik kitoblarni, jurnal va gazetalarni muntazam ravishda o'qib borishi, badiiy adabiyotdan, har xil kinofilmlardan foydalanish kerak. Dars berish jarayonida vositalar har xil bo'lishi mumkin. Bu o'qituvchining ixtisosligiga, uning qiziquvchanligiga, ehtiyojlariga, intellektual faolligiga bog'liq. Albatta, bunda o'rganilayotgan material mazmunini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Dars bir nechta omillardan iborat. Shularning asosiysi - davlat dasturlari tomonidan qabul qilingan material, o'qituvchi o'quv dasturining asosiy yo'nalishlarini bilishi kerak. Har bir darsda 3ta masalaga e'tibor qaratishi kerak. Bular:

1. Tarbiyaviy masalalar - talabalarning bo'layotgan hodisalarga, atrofga bo'lgan dunyoqarashini shakllantiradi. Ularda insonparvarlik, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydi.

2. Ilm oshiradigan masalalar - o'z ichiga talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishini oladi.

3. Bilish masalalari-talabalarda o'rganilayotgan materiallardan asosiysini, muhim joylarini ajrata olish qobiliyatini, o'quv faoliyatida va fikrlashda mustaqil bo'lishni, o'qishda qiyinchiliklarni engishini shakllantirish.

Tajribali o'qituvchilar tomonidan talabalarning darsdagi muhim, kerakli joylari qaysiligini, qaysi joyini eslab qolish, qaysi joyidan shunchaki xabardor bo'lishi kerakligi aniqlanadi.

O'qituvchi tomonidan darsni ishlab chiqish, ya'ni o'qituvchi darsning muallifi. Darsning qanday bo'lishi uning ijodkorligiga va mahoratiga bog'liq. Avvalo, darsning ijodiy rejasini tuziladi. Reja o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'quv dasturidan kelib chiqib, har bir mavzu materialining mazmunini chuqur bilish;

- har bir mavzuning hozirgi zamonga, talabalarning yoshiga mos bo'lishi;

- o'qituvchining hayotiy va ish tajribaga, ma'naviy holatiga mos bo'lishi;

- o'rganilayotgan mavzuning oldingi o'tilgan, keyin o'tilishi kerak bo'lgan mavzularga mos kelishi;

- har bir mavzuning talabalar psixologiyaga moslashish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonini o'qituvchi tashkil etar ekan, u o'rganishning samaradorligiga, talabaning ta'limni subektiga aylantirishga, talabalar ham shu darsning ham muallifligiga aylantirishga intiladi.

Darsni ishlab chiqish-tegishli materialni o'zlashtirishning eng samarali usul va vositalarni tanlash demakdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, darsni ishlab chiqishda o'rganilayotgan material o'zlashtirishning metodik usullarni tanlash-birinchi o'rinda turish kerak, keyin esa uning boshqa komponentlari: uy vazifani tekshirish mustahkamlash metodlariga amal qilish kerak.

Dars rejasini tuzish juda muhimdir. Hattoki, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar ham yangi, endi ishga tushgan o'qituvchilar ham har bir darsliklarni ko'rib chiqishni kanda qilmasliklari kerak. Bu albatta, o'qituvchining o'ziga foyda beradi talabalarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchining

mahorati, aqliy faoliyatini boshqarish, darsda bilish faoliyatini boshqarish mahorati ko'pgina faktorlarga bog'liq. Shularning eng asosiysi, o'qituvchining o'z predmetini talabalarga qiziqarli qilib ko'rsata olish qobiliyati. Chunki qiziqish ko'pgina, masalan: anglash, xotira, diqqat, fikrlash, iroda kabi psixik jarayon va funksiyalarga bog'liq.

Ta'lim jarayoni - kishilik jamiyatining barcha erishgan yutuqlari yangiliklari va kelgusi taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Darhaqiqat, ta'lim jarayoni natijalaridan nafaqat ijobiy yutuqlar, afsuski salbiy oqibatlar ham kelib chiqqan<sup>1</sup>.

Demak ta'lim jarayoni imkoniyatining kengligi va o'ta xushyorlik bilan amalga oshirilishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Shu nuqtai nazardan qarganimizda insoniyatning boshqa mavjudodlaridan farqi - oldiga ma'lum bir ijobiy maqsad qo'yib maqsad sari qiladigan harakatini amalga oshirishda ta'lim jarayonini o'rni ahamiyati katta. Shu boisdan ta'limni mukammalroq shakllantirish uchun bir qator izlanishlar muhim. Jumladan Prezidentimiz I.A.Karimov "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib borayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi. Kasb-kori mahorati, uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tiladi"<sup>2</sup> deb ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar ijrosini milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqib tariflar bergan.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalari joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi, shuningdek uni ana'naviy ta'lim metodlaridan ustunligi yoki dolzarbligi to'g'risidagi fikrlar ilgari surilmoqda. Albatta yangilik va zamonaviylik milliy xususiyat hamda jamiyat talabi darajasida amaliyotga tadbiiq etila borsa, amaliy ahamiyat yanada ijobiylashadi. Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim jarayoni muammolariga oid ilmiy qarashlarga "Pedagogik texnologiya" "Yangi pedagogik texnologiyalar" kabi tushunchalar ishlab turgani bilan ularning milliy xususiyatimiz va ona tilimizga mos keladigan tarifi mukamma tarzda tuzilmagan deb o'ylaymiz.

<sup>1</sup> «Бизнинг эзгу мақсадимиз – тараққий топган давлатлар қаторига киришдан иборат» Т.: Ўзбекистон, 2010

<sup>2</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: «Ўзбекистон» 1997

Bizni qancha "Pedagogik texnologiya" atamasi ilmiy jihatdan ham milliy xususiyatimizga xos ravishda izohlanmoqda. Shuningdek, uning mohiyati mazmuniga ko'ra talqin etishi etarlicha ishlab chiqarilmaganligiga asosiy sabablardan biri, qo'llanilayotgan iboraning bir-biridan farqlovchi ko'pgina tariflari mavjudligidadir deb o'ylaymiz. Fikrimizcha "Pedagogik texnologiya" so'z birikmasi asosida "Texnologiya" "Texnologiya jarayoni" tushunchalari yotadi. ***Ma'lumki, texnologiya yunoncha so'z bo'lib, texno-maxorat, san'at, loqos-tushuncha, ta'limot ma'nolarni anglatadi.*** "Texnologiya" har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Agar pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tadbiiq etish tarixiga e'tibor qaratsak, unda mazkur atamalarga rossiyalik olimlardan V.R.Bespalko "Pedagogik texnologiya" o'qituvchi maxoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'qituvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir".

V.M.Monaxov "Pedagogik texnologiya avvaldan rivojlantirgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir"<sup>1</sup> degan qisqacha tarifni bergan holda uning asosiy xususiyatlariga e'tiborini qaratadi, shuningdek "Pedagogik ta'lim jarayoni texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligi hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochiligi sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi" degan hulosani ilgari surgan. Pedagogik ta'lim sharoitida moslashgan ta'lim jarayonida ijobiy natijalarga olimlarimiz erishmoqdalar va "Pedagogik texnologiya" haqida o'z fikr mulohazalarini bildirmoqda. Jumladan N.Saidaxmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatuvi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularga oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayoni ekanligini bildirishga va boshqalar ham fikrini bildirdilar. Shuningdek yunesko "Pedagogik texnologiya bu - bilim berish va uni egallashga texnika va inson resurslarini uzviy bog'liq holda ko'rib, bugun ta'lim jarayoni loyihalarida va amalda qo'llashda majburiy yondashuv

---

<sup>1</sup> Arnautov V.V., Monaxov V.M. Optimizatsiya uchebnogo protsessa.-Moskva: Mixaylovka. MSOP. 1997

usullardan foydalanishdir degan fikrni keltiradi. Texnologik yondashuv doirasida loyihalash usullarga bo'lgan munosabatimiz ta'lim jarayonining samarali va darsni ijodiy rejalashtirish yoki yangi fikrlar bilan boyitish hamda ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Zotan, o'qituvchi odatda o'z oldiga o'quvchilar yoki talabalar uchun dars materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishi, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo'llashga o'rgatish maqsadini qo'yadi. Ammo o'zlashtirish, tushunish, qo'llash degan tushunchalar amaliyotda o'zi nimani anglatadi? O'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishilganligini nima asosda qanday biladi? Degan savolga ijobiy javob topsak

Pedagogik texnologiya yoki maqsadli dars loyahasini ishlab chiqqanimizga ishonch hosil qilamiz va amalda ilg'or tajribalarga ega bo'la boramiz. Izlanishlarimiz ko'rsatishicha, an'anaviy o'qitish uslubiga qo'shimcha ravishda pedagogik texnologiyani tadbiiq qilish barobarida aynan yuqoridagi holatlarga javob topishni nazarda tutilgan.

Shuningdek pedagogik texnologiyadan ko'zlangan samarali maqsadga erishishimiz uchun uni o'rganishda soddalashtirgan tajribalarni quyidagicha tushunish mumkin bo'ladi: ya'ni

1. Tushuntirish - etkazilayotgan axborotning ma'no - mazmunini undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga etkazish faoliyatidan iborat bo'lgan holat.

2. Tushunish - etkazilgan axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

3. O'rgatish - etkazilgan axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgatgan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llash va amalga oshirish faoliyatidan iborat holat.

4. O'rganish - etkazilgan axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash

## **1.2. Ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish asoslari**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashda bo'lgan qiziqish va e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishni bu sohada yangi zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning psixologik tamoyillariga e'tibor qaratishdan avval pedagogik texnologiya tushunchasining mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik texnologiya tushunchasini o'quv jarayoni tashkil qilish boshqaruv va baholash taxlil qilish jarayonlarining borishi yoki bir necha sohalarni qamrab olganligi ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv, texnik va informatsion texnologiyalar uslublar tizimlariga isbotan ishlashni maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyaning joriy qilishning umumiy psixologiya yosh psixologiyasiga, pedagogik-psixologiya va ijtimoiy psixologiya oid ko'plab masalalari mavjud.

Ma'lumki har bir dars, fan va mavzuni o'rganishda o'ziga xos texnologiya metod va vazifalarni tanlash va foydalanishga to'g'ri keladi.

O'qitish jarayoniga yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur loyihalashtirish jarayonida o'quvchi predmetning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayoni va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojlarini va imkoniyatlarini bilim saviyasini sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlash kerak.

O'quvchi har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki sharoitda tuzish bu o'quvchining tajribasi qo'ygan maqsad va imkoniyatga bog'liqdir.

"Aqliy xujum" metodni qo'llash orqali guruhlar ichida qo'llaniladigan ko'plab g'oyalar ishlab chiqiladi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishadi,

mavzu bo'yicha qizg'in ishga yulashlari ilxom bilan ishlashlariga imkoniyat beruvchi va rag'batlantiruvchi metodlaridir. Bu metodda guruhning barcha talabalari jalb etadi.

"Vur" texnologiyasi orgaliy mavzu bo'lib yoritib beriladi hamda ijobiy va salbiy tomonlari afzallik va kamchiliklari, foyda va zararli tomonlari ochib beriladi. "Vur" texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlari muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvning, guruhning faol ishlashga qaratilgan.

Hulosa qilib aytganda darslarda pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarni o'z qobiliyati va imkoniyatini namoyish qilishga, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga, jamoa bilan ishlash malakasi va o'zgalar fikrini hurmat qilishga o'rganadilar.

## **I BOB BO`YICHA XULOSALAR**

1. Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqan tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlilik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligini, darsning asosiy tarkibiy elementlarini, muammolilik tamoyillarini, darsning ko'rinishlarini ochib bergan.

2. Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim jarayoni muammolariga oid ilmiy qarashlarga "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiyalar" kabi tushunchalar ishlab turgani bilan ularning milliy xususiyatimiz va ona tilimizga mos keladigan tarifi mukammal tarzda tuzilmagan deb o'ylaymiz. Ta'lim jarayoniga zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalari joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi, shuningdek uni ana'naviy ta'lim metodlaridan ustunligi yoki dolzarbligi to'g'risidagi fikrlar ilgari surilmoqda. Albatta yangilik va zamonaviylik milliy xususiyat hamda jamiyat talabi darajasida amaliyotga tadbiq etila borsa, amaliy ahamiyat yanada ijobiylashadi. Shuningdek "Pedagogik ta'lim jarayoni texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligi hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochiligi sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi" degan hulosani ilgari surgan.

3. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishni yangi zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning psixologik tamoyillariga e'tibor qaratishdan avval pedagogik texnologiya tushunchasining mazmuniga to'xtalib o'tilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasini o'quv jarayoni tashkil qilish boshqaruv va baholash taxlil qilish jarayonlarining borishi yoki bir necha sohalarni qamrab olganligi ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv, texnik va informatsion texnologiyalar uslublar tizimlariga nisbatan ishlashni maqsadga muvofiqligi ochib berilgan.

## **II-BOB. PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI, MAZMUNI VA AHAMIYATI**

### **2.1. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositasidan foydalanish**

Ta'limda innovatsiyalarga ehtiyoj sezilayotgan bugungi kunda talabalarga ta'lim jarayonida yagnicha yondashuvlar asosila, o'quvchi va o'qituvchining o'zaro faolligida interfaol usullardan foydalanib, darslarni tashkil qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'z navbatida shuni aytish joizki, 2006-2007 o'quv yili "Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish yili" deb nomlanishi ham ayni muddao bo'ldi. Bu borada bugungi kunda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarini axborot kommunikatsiya uzatuvchi texnik jihozlar bilan ta'minlash ishlari jadallik bilan olib berilmoqda. O'qitish jarayonida bunday vositalardan foydalanish borasida avvalo o'qituvchining o'zi ham tegishli texnologiya bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Bu esa, pedagog xodimlarni o'z ustida tinmay izlanishi, yangiliklardan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lishi, shaxsiy darsturi asosida uzluksiz malaka oshirishi demakdir. Nafaqat 3 yilda biz oshiriladigan malakada, balki har bir darsga tayyorgarlik ko'rishda turli treninglardan, internet tarmoqlaridan foydalanib, o'qitishning yangi intensiv metodlarini ishlab chiqib, interfaol usullar "Bank" ini yaratish zarur. Bu o'rinda ta'lim jarayonida talabaga individual yondashgan holda u qabul qilishi osonroq bo'lgan uslubni tanlash maqsadiga muvofiqdir. Bu talabaning og'zaki nutqini shakllantirishga, o'z fikrini ifodalash, to'g'ri gapirish kabi ko'nikmalarini hosil bo'lishiga olib keladi.

Mashg'ulotlarning videokamera orqali tasvirga tushurilgan ko'rinishini muhokamaga qo'yilishi o'zining xatolarini ko'rish, o'zini, do'stlarini ob'ektiv baholash imkonini yaratadi. Turli metodlarning qo'llanishi talabalar qiziqishini oshiradi.

O'qilishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning, talabalarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi.

O'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo'llash pedagogik metodikalarning boyishi pedagoglar mehnat faoliyatining o'zgarishi ish uslublarning takomillashishini, pedagogik bilimlar tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayonni boshqarishni tashkil etishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi:

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish:

- o'quvchilar o'rtasida mehnatning taqsimlanishi
- masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar va komp'yuter dasturlari mutaxassislarning birlashuvi:
- pedagogik jarayonni tashkil etishni takomillashtirish va o'qituvchilik faoliyati samaradorligini moniyligini taqozo etadi.

Yangi texnologiyalar pedagogik faoliyatning:

- ta'limning texnologik asosi hech rivojlanishi bilan bog'liq ravishda kurslarni yaratishdagi murakkab jarayonning engillashtiruvi;
- o'quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishi;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning va o'quv materiallarining samaradorligini nazorat qilishga ehtiyoj;
- o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatining rivojlanishi, o'quv jarayoni salmoqning o'qituvchidan talabaga ko'chishi;
- o'quv jarayonini tashkil etishda talaba shaxsiy yordamning ortishi.

Hozirgi bilim muassasalari zamonaviy komp'yuter va telekommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishi o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki uning vazifalarini mohiyatini o'zgartiradi. O'qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi.

Endi o'qituvchi:

- o'quv kurslari dizayneri - o'quv kurslarini yaratuvchi;
- Fasilitator - o'qitish metodlari bo'yicha maslaxatchi;

- myuzor - interfaol o'quv kurslarini taqdim etuvchi;
- invigilyator - ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar masofaviy ta'limning yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday bilimda pedagoglar komp'yuter dasturchilari va mutaxassislari o'quv kurslarini yaratishlari lozim bo'ladi.

Masofaviy o'qitish kurslarni yaratishda dastlab quyidagilarni aniqlash lozim:

- kurslarni maqsadi
- maqsadga erishish yo'llari
- o'quv materiallarni taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlari turlari
- muhokamalar uchun savollar
- munozara va baxslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiyasi.

Bularning barchasini kurslarni yaratuvchilar - o'qituvchilar va texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiradilar.

*Masofaviy o'qitish tizimining yaratilishi pedagogik jarayonning takomillashtirilishi va uning olib borilishini talab qiladi.*

Pedagogik faoliyat samaradorligini monitoring qilish va pedagogik jarayonni tashkil etishni takomillashtirish quyidagilarni taqozo etadi.

- masofaviy kurslarni yaratuvchi va etkazuvchi mutaxassislar jamoasining kuchsiz jihatlarni aniqlash va taxlil etish.

- boshqa ta'lim muassasalarining masofaviy o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish

Pedagogik jarayonni tashkil etish monitoringining asosiy masalalari quyidagi muammolarni hal etishga qaratilmog'i lozim.

Kurslarni yaratuvchi va etkazuvchilar guruhini to'g'ri tashkil etish, bu guruhlarda mehnatning taqsimlanish usullarini o'zini oqlaydi.

O'qituvchini samaradorligini oshirish uchun kurslarni yaratuvchilarning ixtisoslashishi darajasi. O'quv jarayonida turli o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarni uslubiy o'rni.

Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi kommunikatsiya turiga qarab masofaviy o'qitish metodlarining asosiy guruhlarini quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

- mustaqil o'qish usullari
- "Birga-bir" pedagogik usuli
- "Birga -ko'pchilik" o'qitish usuli

Kommunikatsiya asosida "Ko'pchilik-ko'pchilik" bo'limida masofaviy mustaqil o'qish uchun multimediya yondashuvi xarakterlidir. Mustaqil o'qishni tashkil etishda an'anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan ta'limning imkoniyatlarni taqqoslash orqali ikkinchisining ustunligi yaqqol ekanligiga amin bo'lamiz.

"Birga-bir" o'qitish metodi - bu individuallashtirilgan o'qitish va o'qish metodidir. Bunda o'quv muloqotlarining talaba o'qituvchi, talaba-talaba shakllari qatnashadi. Bu metod uchun telefon, ovozli pochta, elektron pochta kabi texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Komp'yuter tarmoqlariga asoslangan teleustozlikni rivojlantirish muhit yo'nalish hisoblanadi.

An'anaviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklari

|                  |  |
|------------------|--|
| An'anaviy ta'lim | Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim |
| Ma'ruza          | Audio va video ma'ruzalar                    |
|                  | Radio va televidenie ma'ruzalari             |
|                  | Elektsiya-elektron ma'ruzalar                |

"Birga-ko'pchilik" o'qitish usuli uchun an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklarini taqqoslaylik;

Zamonaviy texnologiyalar o'qitish usullarini ham takomillashtirishga ishonch xosil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi atamalarni olib kirishga asos bo'ladi. Keyingi vaqtlarda elektron ma'ruzalar - elektsiya tushunchasi paydo bo'ldi.

Elektsiya bu - komp'yuter tarmoqlari orqali tarqatuvchi ma'ruzalar materiallardir. Elektsiya nafaqat ma'ruza matnlari, balki talabani baxslarga tayyorlashga xizmat qiluvchi uquv materiallari, maqolalar ulardan olingan qisqartmalardan tashkil topishi mumkin.

Kommunikatsiya asosida "Ko'pchilik-ko'pchilik" usuli uchun an'anaviy - zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim afzalliklarini taqqoslaylik.

Bu o'quv jarayoni barcha ishtirokchilarning o'zaro faolligi bilan xarakterlanadi. O'quv jamoaviy baxslarga konferentsiyalarning o'tkazilishi bu metodning rivojlanishga olib keladi.

O'quv metodlari talabalar - o'qituvchi va talabalar - talabalar shaklida bo'ladi. Bu metod senxrom va asinxrom, audio, audiografik video va komp'yuter konferentsiyalari texnologiyalariga asoslanadi. Multimedaning quyidagi muhim belgilari mavjud.

1. Interfaol metod bilan ham hamohanglik multimediya mashg'ulotini darslikda video qo'yib tasavvur hosil qilish mumkin. Elektron shakli - bu erda jismoniy shakldan ochiq emasligini unutmaslik kerak. Multimediya har bir ob'ekt interfaol bo'lgandan keyingina o'rganish osonlashadi.

2. Invertsialik. Asl mazmuni muallif foydalanuvchiga etkazib berilishini namoyon etish.

3. Bitta axborot matnini kuzatish shakllarni hilma-hilligi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak komp'yuter yordamida insoniyat olamini bilishda sifatli bolg'ichga erishdi.

## **2.2. Pedagogik jarayonni boshqarishda interfaol texnologiyalarni samarali qo'llash**

Bizga ma'lumki, o'qitishning umumta'lim sohasida ko'pgina metodlar mavjud bo'lib, ular har xil dars turlarida qo'llanib yagona maqsadga, ya'ni o'quvchilarning bilim olishlariga qaratilgandir. Bu metodlarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, ular an'anaviy ta'limni yangilayapti. Ta'limning bunday metodlariga passiv, faol va interfaol o'qitish turlari kiradi.

Passiv o'qitishning o'ziga xos tomoni shuki, o'quvchilar materialni o'qituvchi yoki darslik matnidan bilib oladilar, o'zaro fikr almashmaydilar, ijodiy topshiriqlar bajarmaydilar. Bu model an'anaviy bo'lib, tez-tez qo'llaniladi. Shunga qaramay, zamonaviy dars tizimiga qo'yilgan talab - bu faol metodlarni qo'llash hisoblanadi. Faol metodlar biluv faoliyati va o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltiradi. Bu model o'quvchi-o'qituvchi muloqoti, doimiy ijodiy (uy ishi) topshiriqlaridan iborat. Interfaol ta'limni tashkil etish hayotiy tajribaga asoslanib, rolli o'yinlar ijro etish, turli vaziyatlardan chiqish, topshiriqlarni kupchilik bo'lib hal qilish, savollarga javob izlashga qaratiladi. Interfaol dars tipi an'anaviy dars tuzilishidan keskin farq qilib, o'qituvchidan pedagogik bilim, mahorat va tajriba talab qiladi. Shuning uchun darsning tuzilishi faqat o'qitishning interfaol model elementlari - interfaol texnologiya, ya'ni aniq metod va usullardan iborat. Ular darsni ma'naviy va yanada qiziqarli, mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Holbo'qi, bo'tun dars jarayonini interfaol dars qilib o'tkazish mumkin.

Interfaol texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida (yangi mavzuni o'tib bo'lgach) va bilimlarni qo'llash jarayonida, maxsus darslarda, so'rov jarayonida yoki mustahkamlashda qo'llash mumkin.

Juftlikda ishlash ta'limning boshlang'ich qismida eng samarali hisoblanadi. Buning e'tiborli tomoni shundaki, barcha o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishi mumkin, ya'ni avval o'z sheriklari bilan keyinchalik butun sinf bilan faoliyat olib boradilar. Bundan tashqari o'quvchilar dars davomida faqat tinglovchi bo'lib qolmay, balki xamma darsga jalb qilinadi. Bunday ish turiga misol qilib quyidagilarni: matn muhokamasi, sherigidan intervyu olish, sherigining yozma

ishini tahlil qilish, sinf o`quvchilari uchun savollarni tuzish o`qituvchining savollariga javob qaytarish, testni tekshirish va boshqa ish turlarini kiritish mumkin. O`qituvchi o`quvchilarni juftlikka bo`lish va ularga topshiriq berib juftliklar ishining natijasini baholash ko`nikmasi talab qilinadi.

Bunday ish turida o`quvchilarning faoliyati muhim bo`lib, ular uchlik shaklda birlashadilar. O`qitishning bu turi yangi materialni analiz va sintez qilish maqsadida o`tkaziladi. Buning uchun o`qituvchidan o`quvchilarni uchlik (1-, 2-, 3-) shaklida doira xosil qilish talab qilinadi. Har bir uchlikka savollar (xamma uchun bir xil) beriladi, lekin ularning javoblari turlicha bo`lishi, har bir o`quvchi galmagaldan javob berishi kerak bo`ladi. So`ng xamma o`quvchilarni aralash, masalan, birinchi raqamlilarni boshqa uchlikka o`tkazish yo`li bilan o`qituvchi o`quvchilarni istaganicha harakatlantirishi, shuningdek turli savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Ko`rinib turibdiki, bu juda faol usullardan bo`lib, uni istalgan darsda qo`llash mumkin, bu esa o`qituvchining xohishiga bog`liq.

Guruhda muloqot qilishning yana bir usuli borki, u o`qitishning guruhda ishlashiga qaratilgan bo`lib, boshqalarni o`z fikriga ishontirib, munozara olib borish bo`lib, "ikki, to`rt -barcha" deb nomlanadi. Bu metod shundan iboratki, o`quvchilarga farazli vaziyat berilib, 1-2 daqiqa ichida yakka javob va qaror qabul qilish topshiriladi. So`ngra ular juftliklarga birlashib, o`zaro fikr almashadilar. So`ng juftlikda umumiy fikr almashib bir qarorga kelish, bitta javob topishlari kerak. O`qituvchi juftlikni to`rt kishilik go`ruxga birlashtirib, umumiy javob topishga harakat qildiradi. To`rtlik umumiy javob tanlashi kerak. Shunday qilib, jamoaviy munozaraga kirishish mumkin. Bu ish turida ham bekor o`tirishga yo`l qo`yilmaydi.

Hozirgi asosiy metodik innovasiyalar o`qitishning interfaol texnologiyalari bilan bog`liq. Shunga bo`lsa kerak «interfaol o`qitish» atamasi turlicha nomlanayapti. Ushbu usulda o`qitish g`oyasi 1990 yillar o`rtalarida Internet tarmoqlarining paydo bo`lish, ko`pgina olimlarning fikricha, bu tushuncha kompyuter tarmoqlari va internet resurslaridan foydalanib o`qitish bilan bog`liq jarayondir.

«Interaktiv» tushunchasini inglizchadan, ayrimlar esa lotinchadan olingan deb hisoblaydilar. Ko'pgina adabiyotlar bu so'zni inglizchadan olinganini ta'kidlaydi. Interfaol ta'lim berish - bu biluv faoliyatini tashkil qilishining maxsus shakli. U aniq va prognozlashgan maqsadni ko'zlaydi. Bu maqsadlardan biri o'qitishning sharoitini yaratish, bunda o'quvchi o'zining muvaffaqiyatini, intellektual imkoniyatini his qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining salohiyatini oshiradi.

Pedagogikada ta'lim berishning bir qancha modellari bo'lib, ular o'zaro farqlanadi.

1. Passiv - o'quvchi ta'lim berishning «obekti» sifatida namoyon bo'ladi (ko'radi va tinglaydi).

2. Faol - o'quvchi ta'limning «subekti» sifatida ishtirok etadi (mustaqil ish, ijodiy topshiriq).

3. Interfaol - o'zaro faol, ta'sirlanish. O'qitishning interfaol texnologiyalaridan foydalanish hayotiy vaziyatni modellashtirishning oldini olishni, rolli o'yinlardan foydalanishni, muammoni o'zaro xamkorlikda hal qilishni o'rgatadi. O'qish jarayonida qaysidir o'quvchi va g'oyalar obektdan faol subektga aylanadi.

O'qitishning faol va interfaol texnologiyalaridan foydalanish muammo bo'lib, uni o'qitish metodikasi bilan o'qituvchi va o'quvchilarni ta'minlash, chunki o'quvchilarning ko'pchiligi bu texnologiya asosida o'qitishni ko'rmaganlar.

O'qituvchi o'quv predmetini o'qitishda ta'limning faol va interfaol texnologiyalaridan foydalanadi. Ko'p hollarda ularni qo'llashda metodik xatoliklarga yo'l qo'yilyapti va bu o'quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmokda. Ularni to'g'ri qo'llash o'qituvchilarning shaxsiy sifatining shakllanishida va istalgan o'quv materialini yaxshi egallanish muammosini hal etishga yordam beradi, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tez kirishish imkonini beradi.

O'quv jarayonida o'qituvchi o'z hoxishiga ko'ra darsni passiv yoki faol qilib o'tkazishi mumkin. Shunday ekan, har qaysi o'qituvchi istasa darsni samarali,

o`quvchilarni izlanishga, faol bo`lishga, o`zaro fikr almashishga ijodiy muxit yaratadi. Istamasa, oddiy, an'anaviy usulda tinch o`tkazishi mumkin.

Ta'lim jarayonining qanchalik faol, qiziqarli va samarali bo`lishi bevosita o`qituvchi shaxsiga hamda u o`qitayotgan o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalariga bog`liq. Shunday ekan, biz har bir o`qituvchini ana shunday faol, izlanuvchan va o`z ishining natijasi bilan faxrlanuvchi, ijodkor o`qituvchilarning ko`payishiga umid qilib qolamiz.

### **Intefaol doskalarning imkoniyatlari**

Ta'limning yangi - XXI asr jarayoni jamiyatdagi o`zgarishlar, ilmiy texnikaviy progress, axborot va kommunikasiya vositalarini shakllantirish tufayli uni texnologiyalashtirish bilan uzviy bog`liqdir. Ana shunday vositalardan biri interfaol doskalardir. Bugungi kunda interfaol doskalar Smart Board, Star Board nomlari bilan ishlab chiqilmoqda.

Interfaol doskaning eng so`nggi ko`rinishlarida talabalar doskada bo`layotgan narsalarni uzoq masofadan xam ko`zatishlari mumkin. Doskaning tashki ko`rinishi xam o`zgardi: ko`rkam rang, marker va lastikning zamonaviy dizayni tugmalarning qulay joylashuvi doskani ish uchun yanada qulay va samaradorligini ta'minlaydi. Tashqi o`zgartirishlardan tashqari funksional yangiliklar xam kiritilgan. Klaviaturaning chaqirish tugmasi sichqonchanning o`ng tugmasi o`lchami kattalashtirilib va ma'lumot tugmasi kiritildi. Endi barcha muammolarni bitta tugma bosish orqali hal etish mumkin bo`ladi. Latokda yangi joyning paydo bo`lishi yangi qurilmalarni ulashga va vaqti kelganda tizimni yangilashga imkon beradi. **Smart Board** ni mukammallashtirilgan ushlab turish qo`rilmasi doskani joyida mahkamlashga imkon beradi va uni qiyalashish yoki yiqilishdan himoyalaydi. Kattalashgan g`ildirakchalar yanada mustahkam va ishonchli bo`lib, ular yordamida doskani siljitish soddalashdi. Doskaning balandligini xuddi oldingidek o`qituvchining bo`yiga moslash mumkin, shu bilan birga endi bu mexanizmga o`lchov shkalasi xam kiritilgan.

Interfaol doska bu - kompyuterga ulangan sensor ekran bo`lib, kompyuterdagi ta'sir doskaga proektor yordamida uzatiladi. Kompyuterda

ishlashni boshlash uchun doska sirtiga qo`l tekizish kifoya. Interaktiv doskalar uchun mo`ljallangan maxsus dasturiy ta`minot matnlar va obektlar, audio va video materiallar, internet resurslar bilan ishlashga ochiq hujjatlar ustida qo`l bilan yozishga va axborotni saqlashga imkon beradi. **Smart Board** doskasi ishlash va ijod qilish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga uni boshqarish juda engil.

Interfaol doska, proektor va kompyuterdan iborat dastur-apparat kompleksining bir qismidir. Ushbu konstruksiyaning ijobiy tomonlari interfaolliq qanday namoyon bo`ladi degan savollar paydo bo`lishi tabiiy. Ularga javob akslantiruvchi elementni ishlab chiqarish texnologiyasi va ta`minlovchi dasturiy ta`minotdir. Doskaning akslantiruvchi sirti ikkita plastik listlardan iborat bo`lib ularni ichki yuzasiga rezistiv elementlar joylashtirilgan. Mana shu elementlar yuzaga bosishi natijasida vujudga keladigan bosim ta`sirida o`z qarshiligini o`zgartiradi. Ya`ni bosilgan joyda qisqa tutashuv yuz beradi. Keyingi bosqichda bu holatning koordinatalari aniqlanib, axborot simsiz aloqa yoki 115V interfeysi vositasi yordamida kompyuterning sistema blokiga yuboradi. Shundan so`ng doska interfaollik xususiyatiga ega bo`ladi.

Ekranida akslanayotgan kontekstga bog`liq ravishda Qo`l tekkizish orqali chiziqalar chizish, personajlarga ovoz berish, yoki internet resurslariga ulanish mumkin. Doska 4 milliondan ortiq (2000x2000 matrisa) kontakt elementlarini o`z ichiga oladi. Har bir element ta`sirga o`ta sezgirdir. Standart jamlanmada yozish uchun 4 ta marker (qora, qizil, yashil va ko`ranglarda) bo`lsada kupchilik o`qituvchilar ayniqsa bolalar qo`l bilan yozishni afzal ko`radilar. Bunday markerlar ishlatishni qulaylashtirish uchun xizmat qiladi. Barcha imkoniyat dasturiy ta`minotda mujassamlashgan.

**Smart Board** dasturiy ta`minoti. Dasturiy ta`minot doska bilan birgalikda komplektda takdim etilib darslarni, prezentasiyalarni yaratish uchun va namoyish qilish uchun barcha zaruiy imkoniyatlarga ega.

Imkoniyatlari bilan tanishish. *Notebook* dasturini har gal ishga tushirganda siz foydalanayotgan dastur lisenziyalanganligini tasdiqlovchi oyna paydo bo`ladi.

Bu dasturning qulay tomonlaridan biri uning ta'lim muassasalariga mo'ljallanganligidadir. Ya'ni dasturning har bir nusxasiga yoki ish joyiga emas balki muassasada to'liq foydalanish uchun pul to'lanadi. *Notebook* dasturini ishlatishning boshlang'ich bosichlarida kolleksiyalar tarkibidagi obektlarni tanlash va ulardan dars yoki prezentasiyada foydalanish juda qulaydir. Ushbu kolleksiyaga quyidagi elementlar kiradi: grafik tasvirlar, vektorli grafik tasvirlar, matnli axborot va ovozlari. Vaqt o'tishi bilan asosiy kolleksiya etarli emasligi sezilarli bo'lib qolgach, uni to'ldirish zarurati tug'iladi. Bu juda oson. Keng imkoniyatlarni ishlatgan xolda kerakli narsani chizib, fotoapparat tasviriy tugmani bosish yordamida utilitlarni chakiramiz. Ko'ribsizki rasm obektga aylanadi. Bundan keyin uni aylantirib, o'lchamini o'zgartirib, rangini o'zgartirib, ovozlarni yoki internet resurslarga yo'naltirib kolleksiyaga qo'shishimiz mumkin. Agar bu kamlik qilsa Adobe Flash fayllarining importidan foydalanamiz. Juda murakkab obektlarni ishlatish foydalanuvchilar ishini murakkablashtirishi mumkin. Installyasiya paytida *Notebook* dan tashqari **Smart Board** doskasini boshqarish dasturi ham o'rnatiladi.

Bu dastur sozlashni amalga oshirishga yordam beradi, kompyuter ekranini dinamik ushlab turishga va axborotni *avi* formatda saqlashga imkoniyat beradi. Shunday qilib dars yoki prezentasiya davomida yozib olingan ma'lumotlar DVD da saqlanishi va o'quvchilarga takdim etilishi mumkin.

Ekranni kisman yoki tulik yopishga imkon beradi. Shu bilan birga Adobe Asgobat, Microsoft Rover-Roint formatlari va RNG, GIF, JPEG, VMR kabi grafik formatlarni internet saxifalariga eksport qilish imkonini beradi. Ishchi sohani chop etishga berish imkoniyati xam mavjud.

**Yozib olish vositasi.** Foydalanuvchi tomonidan bajarilayotgan o'zgartirishlarni, yaratilgan o'rgatuvchi video roliklar va turli demonstrasiyalarni xotiraga yozib olish uchun qo'l keladi.

Video pleeyr. Turli video fragmentlarni ko'rsatish uchun xizmat qiladigan vosita (Windows Mediyaga o'xshash) bo'lib ko'rsatish jarayonida kerakli ilovalar qo'lyozma matnlar kiritish imkonini beradi.

**Klaviatura.** Matn kiritishga xizmat qiladigan vositalar «virtual klaviatura» matni chizilgan klavishalarga ta'sir ko'rsatish orqali kiritish. Qulyozma matni tanish moduli.

**Orientasiya.** Interaktiv doskani unga tushirilgan tasvirga bog'lash (kalibrovka) vositasi. Ekranni soyalash, yoritish, lupa, kalkulyator.

Ba'zi bir qulay rejimlarni amalga oshirishga yordam beradigan vositalar. Masalan, yoritish yordamida marker bilan umumiy tasvirdan kerakli fragmentlarni yoritib ajratib ko'rsatish mumkin.

Magt Ideas turli vizual axborotni ko'p pog'onali sxemalar, diagrammalar ko'rinishida tizimlashtirishga imkon beradi. Bu sxema va diagrammalar tarkibiga tashqi fayl va video tasvirlarga giper bog'lanishlar xam kiritish imkoniyati bor.

Sunchrop Eyse - o'quvchilarni birgalikda tarmoqli kompyuter sinfida ishlashini ta'minlashga va ularning ishini o'qituvchi tomonidan markazlashgan xolda nazorat qilishga imkon yaratadi.

Vridgit - birgalikda internetda video konferens aloqa orqali ma'lum hujjat ustida birgalikda masofaviy ishlashni amalga oshirishni ta'minlaydi.

*Smart Notebook* - darsga tayyorgarlik. Har qanday o'qituvchi birinchi bo'lib, ushbu mahsulotni qanchalik darsga mosligi va yangi o'quv materiallarini tayyorlashga beradigan imkoniyatlari qiziqtiradi. Odatda bundan dars mazmuniga taalluqli bo'lgan namoyishli, grafik foto yoki video materiallardan foydalana olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bunday materiallarni sinfda namoyish qilishlarining asosiy shakli slaydlar yirindisidan iborat prezentasiyadir.

Interaktiv doskada tasvirlar bilan olib borilayotgan barcha ishlarni bolalar xuddi tirik tasvirlari va elektron bo'r bilan ishlash kabi his qiladilar, ammo shu bilan birga bildirmay, o'zlari bilmagan holda informatika va kompyuterlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

*Smart Notebook* ekranga chiqarilgan tasvirni nusxalash va saqlash imkoniyatiga ega. Bu imkoniyat shaxsiy qo'lyozmali matnlar va tasvirlar kolleksiyasini yaratishga yordam beradi.

**O'qitish jarayonida multimediyali texnologiyalarni qo'llash**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" bilan bog'liq davlat siyosatining asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim asosida fuqarolarning shaxsiy, psixofiziologik intellektual rivojlanishi darajasini oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

Fuqarolarning uzluksiz bilim olishini ta'minlash ta'lim tizimini axborotlashtirish bilan uzviy bog'liq. Ta'lim sohasini axborotlashtirish va kompyuterlashtirishning har xil aspektlari A.P.Ershov, V.V.Moxanov, I.V.Robert, V.S.Gershunskiy, A.Abduqodirovning o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llashning nazariyasi va metodologiyasi V.A.Keyman, Yu.S.Branovskiy, N.V.Vasilenko, U.Begimqulov asarlarida atroflicha o'rganilgan.

O'qitishda axborot texnologiyasining yangi yo'nalishlaridan biri - intellektual o'qitish tizimlarini qo'llash, axborot va kompyuterlik malaka madaniyatini shakllantirishning asosiy masalalari S.Yu.Karpova, Sh.X Ko'rmanalina V.N.Kaptelinin, O.M.Jusupaliev, S.N.Laktionova izlanishlarida o'z aksini topgan.

Ayni paytda didaktik o'qitish tizimini shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - multimediali texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llashning nazariy va amaliy didaktik masalalari Yu.N.Egorova, N.V.Klemeshovaning, o'rta ta'lim maktablarida informatika, matematikani o'qitishda multimediani qo'llash metodi S.S.Kravsov va T.G.Piskunovalarning tadqiqotlarida chuqur ifodalangan.

Uzluksiz ta'lim tizimi istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan multimediali texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning asosiy talabi hisoblansada, hozirgi ta'lim tizimida undan foydalanish quyidagi sabablarga ko'ra talab darajasida emas.

1. Multimediali texnologiyani pedagogik jarayonda unumli qo'llay oladigan o'qituvchilar etarli emas.

2. O'quv yurtlarining moddiy - texnik bazasini yangi texnologiyalar bilan jihozlab turish kerakligini har doim xam hisobga olinmaydi.

3. O'quv - metodik ishlar xamisha ham yuksak talablar asosida olib borilmaydi.

Hozirgi umumbashariy taraqqiyot jarayonida axborot oqimidan inson uchun kerakli axborotni saralab, anik qo'llay bilish bugungi ta'lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardandir. Bu ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ongini har xil axborotlar bilan zaharlab, uy - fikrlarini bo'shliq xolda qoldirmaslikning asosiy shartlaridan biri. Shuning uchun yoshlarga sifatli bilim, ongli tarbiya beradigan o'qituvchilarni tayyorlash, o'qitishda yangi innovasion metodlarni qo'llash, o'qitishning yangi texnologiyalarini izlash, o'quvchini axborotni tahlil qilish va multimediali texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish har bir o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Multimediali texnologiyalarning rivoji videotexnika va aloxida kompyuterning taraqqiyoti natijasida amalga oshirilmoqda.

"Multimedia" termini lotin tilining "multi" (ko'p) "mediya" (o'rta) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, "axborotli o'quv" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek "axborotli o'quv" tushunchasini aniq bir doirada axborot texnologiyalarini qo'llash orqali axborotni maxsus uzatish va tuzatishga yo'naltirilgan jarayon deb qabul qilish ham mumkin.

Tadqiqotchi olimlar multimedia tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar. Masalan, bizningcha multimedia - har xil tipdagi axborotni kompyuter orqali o'zlashga muljallangan va insonning multisensorlik tabiatiga asoslangan texnologiya.

Multimedia - ikki va undan ham ko'p tipdagi axborotlarni interfaol tarzda biriktirish (D.Little).

Multimedia - har xil shaklda uzatilgan axborotlarni biriktirishga qaratilgan kompyuterning apparat va dasturli vositalari tuplami (D.H.Jooneassen).

I.Vernerning fikricha, multimedia - "grafika, gipermatn, tovush, animasiya, videoma'lumotlarni" qo'llashga sharoit yaratadigan axborot va dasturli vositalar to'plami.

Bizningcha multimedia - kompyuter grafikasi, rasmlar, harakatdagi videoaxborotlar, animasiya, matnlar, yukori sifatli tovushlar bilan ish olib borishni ta'minlaydigan interfaol tizimdir.

Multimediali texnologiyalar - har xil tipdagi ma'lumotlarni tayyorlash, to'g'rilash, umumlashtirish, uzatish harakatlarini axborot va dasturli jihozlardan foydalanish orqali amalga oshiriladigan vositalar, metod va uslublar to'plamidir.

Multimediali dasturlarning asosiy funksiyalaridan biri boshqarishni ta'minlashga qaratilishi bilan karakterlanadi.

Multimediali xosilalar -multimediali vositalar va maxsus dasturli jihozlar yordamida tayyorlangan axborot.

Ko'pchilik tadqiqotchilar "multimedia" va "gipermedia" tushunchalarini bir ma'nodagi so'zlar deb tushunadi. Masalan, I.Vgovn "gipermedia" multimedianing chiziqli bo'lmagan holda uzatilgan to'plami degan fikr bildiradi. Bizning fikrimizcha, multimedia - har xil tipdagi axborotlardan birining ikkinchisi bilan almashinishini amalga oshiruvchi texnologiya. Multimediali axborot turlarini (matn, grafika, animasiya, tovush, videoaxborot va xakazo) o'zaro bog'lash natijasida gipermedia texnologiyasi yuzaga keladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, dasturli o'qitish metodi bilan berilgan materialning 25, ko'rish orqali 33, ko'rish - eshitish orqali 50, multimedik interfaol o'qitish dasturlari yordamida berilgan materialning 75 foizi esda saqlanib qolar ekan.

Multimediali texnologiyalar va dasturli metodlarni o'qitishda qo'llash orasidagi tafovutni M.Kirmaerning quyidagi diagrammasidan ko'rish mumkin (1-jadval).

Multimedianing ajralmas qismi hisoblanadigan lazerli disklarda yozilgan elektron ensiklopediyalar, darsliklar va lukatlar o'qitish jarayonida muxim ahamiyatga ega. Masalan, elektron lug'atlar har bir so'zning tarjimasinigina emas, shu bilan birga, uning talaffuzi namunasini xam o'z ichiga oladi.

O'qitish jarayonida jaxonning atlas kartasi, shaharlar kartasi kabi har xil elektron kartografiyali sistemalar, ongni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yin shaklidagi dasturlar, zarur ko'nikmani shakllantirishga, malaka oshirishga asoslangan trenajyor - dasturlar qo'llanilmokda.

Multimedia Internet - texnologiyaning xam rivojiga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Internetda videokonferensiyalar tashkil qilishda tovushli va video xabarning sifatini pasaytirmay uzatish, insonning aft - angorini kompyuter monitoridan ko'rib o'tirish multimedialning yutug'idir. Multimediali texnologiyalar yordamida bugungi kunda har bir kishi o'zi haqidagi ma'lumotlarni, fotorasmlarni, xatto o'z ovozi Internet tarmog'iga ulash imkoniyatiga ega.

O'qitish jarayonida multimedialdan foydalanish bilim berishning har xil aspektlarini rivojlantirishi mumkin. Axborotni qayta tayyorlashning kognetiv, motivasiya, kommunikasion va o'zlashtirish aspektlari shular jumlasidandir.

Multimedia texnologiyalarini bir o'qitish tizimi mazmuni va metodlariga asoslangan sharoitda qo'llash foydali. Multimediali texnologiyalar va o'qitish metodlarining o'zaro bog'liqligi bir xil bo'lmaydi. Ya'ni, bir multimediali vosita bir nechta o'qitish metodlarini, aksincha, bir o'qitish metodida bir necha multimediali texnologiyalar tuplamini qo'llash mumkin.

### **Masofaviy o'qitish texnologiyasini qo'llashning tahliliy xususiyatlari**

Masofaviy o'qitish so'ngi paytlarda vujudga kelgan bo'lsa ham, u jahon ta'lim muassasalari tomonidan to'plangan eng zo'r metodik tajribalarga egadir. Hozirgi zamon ta'lim talablariga to'liq javob beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanilib, masofaviy o'qitish kurslarni an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq ta'limning innovasion metodlari asosiga yo'naltiriladi.

Ta'lim oluvchilarning bir guruh bo'lib ishlashlariga mo'ljallangan texnologiyalar, masofaviy ta'lim uchun juda maqbuldir, chunki, aynan, shulargina muammoli usullarni, tadqiqot usullarni ishlatishga, olingan bilimlarni kollektiv yoki individual faoliyatda qo'llanilishiga, muloqot madaniyatini rivojlanishiga, mustaqil tanqidiy fikrlashishga, hamkorlik faoliyatida turli xil ijtimoiy sirlarni bajara ishga karatilgandi Bir vaqtning o'zida bu texnologiyalar shaxsni, yo'naltiruvchi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar individual qobiliyatlari bilan mos tarzda ma'lum natijalarga erishishga, olgan bilimlari pi anglash imkoniyatiga ega bo'ladi va, shu tariqa, ularda ko'pgina muammolarga nisbatan shaxsiy fikr shakllanadi.

Masofaviy o`qitishda samarali hisoblangan texnologiyalardan biri, bu hamkorlikda o`qitishdir. Hamkorlikda o`qitish, bu ta'lim oluvchilar birgalikda, kollektiv tarzda loyihalab, bilimlarni tayyor xolida uning obektivligini ochmasdan foydalaniladigan hamkorligidagi ta'lim olishdir. Masofaviy o`qitish jarayonida kooperativ ta'lim turidan xam foydalanish mumkin. Bu kichiq guruhlardagi o`qitish texnologiyasidir. Katta guruh a'zolari bir necha kichiq guruhlariga bo`linadi va o`qituvchining ko`rsatmasi bo`yicha harakat qiladilar. O`qituvchining har biri o`zining vazifasi ustida ishlaydi. So`ng o`rganuvchilar boshqa guruh a'zolari bilan axborot almashishadi. O`qituvchi elektron pochta orqali bilimlaripi mustahkamlash uchun topshiriklarni umumiy mavzu sifatida vazifa qilib belgilaydi.

Shu tariqa, o`quvchilar o`zlarining faoliyatlarini o`zlari rejalashtiradilar va kim nimaga javob berishini belgilaydilar. Bunda o`quvchilar bu hamkorlikdagi faoliyat ekanligini anglashlari asnosida, har biri o`zining xissasiga ega bulishi kerak. O`quvchilarga o`zining o`quv-bilish faoliyatini rejalashda, tashqil ztishda va nazorat qilishda o`zini mustaqilligini namoyon etish, o`quv jarayonini o`quvchilar qiziqishidan kelib chiqqan holda korish imkonini berish, natijasada, qaysidir mahsulot yaratiladigan ta'limning majmuali usullaridan biri loyihalar usuli deb nomlanadi.

Telekommunikasiya loyihalar usuli loyihalar usulining xilma-xilligi xisoblanadi. Bunda umumiy maqsad, faoliyatning umumiy natijaga erishishiga yo`naltirilgan, kelishilgan faoliyat usullari bo`lib, kompyuterli telekommunikasiya asosida tashqil etilgan o`quvchilar — partnyorlarnipg hamkorligidagi o`quv-bilish, ijodiy yoki o`yin faoliyatidir. Loyihalar telekonfrensiyalar ko`rinishida elektron pochta ishlatish bilan o`tkazilishi mumkin.

Masofaviy o`qitishda muammoli o`qitishning texnologiyasi qo`llaniladi. Muammoli o`qitish jarayonida, o`quvchilarda tanqidiy va taxliliy fikrlash rivojlanadi, ular mazkur muammoning echimi uchun zaruriy bulgan axborot va manbalarni kidirishni o`rganadilar. Materialning (dasturning) murakkablashib borishi bir muammodan navbatdagi muammoga qadar asta-sekin olib boradi. Shunday qilib, bir darajadan ikkinchisiga o`tish sodir bo`ladi.

Masofaviy o`qitishda o`quvchilarga individual yondashishni ta'minlab berish mumkin, agar pedagog o`quvchilarni boshlang`ich bilim darajalarini anik belgilab olsa, shunda ham, fa`atgina, batafsil to`li` diagnostika o`tkazish asosida mumkindir. So`ng muayyam o`quvchi uchun individual xolda konsultasnyalar o`tkaziladi, o`tkazishni zaruriy vositalari topiladi, ta`limning individual yo`nalishi ishlab ch`iladi.

Individual ta`lim differensial ta`lim bilan mos keladi. Masofaviy o`qitishda guruhlarda bilim darajalari turlicha bo`lgan o`quvchilar o`qishlari mumkin, Tarkibi bir xil bo`lmagan xar bir kurs, tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan guruh bilan dastlabki tanishuv va test olishdan boshlanadi. So`ngra pedagogik test natijasini xisobga olgan holda, xar bir o`quvchini o`qitish taktikasini ko`radi va guruhlarni shakllantiradi.

Modulli o`qitishni masofali o`qitishda ham xuddi shunday samarali qo`llaniladi. Modulli o`qitishda o`quv materiallarini o`rganishning ketma-ketligi, uni o`zlashtirilishi va o`zlashtirish sifatini nazorat qilish dasturlab qo`yilgan. O`qish modullari va testlar nazorat uchun o`qitishning kompyuter muhitiga o`tkaziladi. Bu texnologiya yordamida o`qitish jarayoni orqali o`quvchilarning katta miqdordagi sonini qamrab olish mumkin.

O`yin texnologiyasidan tug`ri foydalanilsa, masofaviy o`qitish samarali bo`ladi. Bu ko`pincha, ta`limning boshlang`ich bosqichlarida tanishuv yo`sinda ishlatiladi, shuningdek, o`qitilish jarayonida ham bo`lishi mumkin. Pedagogik o`yinlarning qo`yidagi turlarini sanab o`tish mumkin: O`rgatuvchi, Mashq qildiruvchi, Nazorat etuvchi va umumlashtiruvchi, Ongli ta`sir etuvchi, Tarbiyaviy, Rivojlantiruvchi, Reproduktiv, Mahsuldor, Ijodiy, Kommunikativli, Diagnostik, Kasbiy yo`naltiruvchi, Psixologik va bosh`alar.

"Aqliy hujum" usuli judayam qisqa fursatda masalani kollektiv tarzda xal etish yoki g`oyani singdirish zarur bulgan vaqtda samaralidir.

Internet sirasida xar bir gurux a`zolarining g`oyalari beriladi. Bu g`oyalar ro`yxatga olinib, kompyuter xotirasiga saqlanadi va so`ngra guruhda muhokama qilish uchun zaruriy miqdorda bosib chiqariladi. Internet sharoitida bu usul

multimediali, audio-video konferensiyalar va onlaynli chatlar, ya'ni, aniq vakt rejimida muntazam muloqot o`tkazilishida bu usul judayam qo`l keladi..

Shuningdek, kunduzgi o`qitish tizimida ishlatib kelinadigan texnologiyalar mavjuddir, lekin biroz o`zgartirilgan ko`rinishda takomillashtirilsa, ular masofaviy o`qitishda ham ishlatilishi mumkin. Bular — yakka tartibdagi, sheriklik tartibidagi, kollektiv tartibidagi o`qitish texnologiyalaridir. Sheriklik tartibida o`qitilishga repetisiya, do`stlar hamkorligidagi ijodiy ish, resenziyalashni kiritish mumkin. Kollektiv tartibidagi o`qitilishga distup, ma'ruza (taqdimot), muammoli muhokama, ekspertlar bilan uchrashuv va boshqalarni keltirsa bo`ladi.

Shunday qilib, masofaviy o`qitish uchun an'anaviy, noan'anaviy o`qitish texnologiyalarini moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Ulardan qaysi biri eng zarur tarzda taplanib kaysi biriningdir kamchiligi borligi tahlil qilinib, to`ldirilib, takomillashtirilib yangi o`qitish shakli uchun boyitiladi.

Demak, bularning barchasi, eng avvalo, o`qituvchining tayyorgarligi, o`quv guruxlarinipg hususiyatlari, mavzu, mashg`ulot maqsadlari va hokazolar bilan bog`liqdir.

### **2.3. Ta'lim jarayonida innovasion boshqarish texnologiyalaridan foydalanish va uni baholash mezonlari**

Insonning ma'naviy ahloqiy kamoloti ko'p qirrali va mazmun jihatdan chuqur bo'lib, o'z ichiga turli sohalarni qamrab oladi. Shular ichida ta'lim va tarbiyaning alohida o'rni bor. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Ta'lim jarayonida yoshlarni o'qish va o'qitishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan bo'lgan o'yin usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Pedagogik o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda ular fanning maqsadi, fazifasi va xususiyatiga qarab tanlab olinadi.

#### **Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:**

- a) didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- b) o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- v) o'quv materiallaridan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- g) o'quv jarayoniga qo'yilgan didaktik vazifaga o'yinga almashtirilgan tarzda musobaqalashtirish unsurlari kiritiladi. Bu didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti kabi omillar bo'yicha tasnif qilingan. Bunda didaktik maqsadlar quyidagicha qo'yilishi mumkin.

- pedagogik o'yinli mashg'ulotlar orqali bilimlar tizimini mustahkamlash;
- pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha uslubiy malakalarni shakllantirish;
- pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni ishlab chiqish borasida tajriba almashish;
- guruh bo'lib qarorlar qabul qilish malakasini takomillashtirish har xil masalalarni tashkil qilish. Masalan, tarbiyalanuvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish;

- pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berish;

Odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lish jarayonida o'zini tuta bilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bunday mashg'ulotlarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'yinli mashg'ulotlarning pedagogik faoliyatni shakllantirish;
- ishlab chiquvchi tomonidan o'yinlarni yaratish usullarini namoyish etish;
- Bunday o'yinlar ta'lim jarayoniga quyidagi yangi sifatlarni olib kiradi:
- o'quv jarayonini namoyon etuvchi taqlidli modelning, ya'ni o'quv materialining mazmunini;

- o'rgatuvchi o'yinli modelda bulg'usi kasbiy faoliyat shakli va vazifalari bo'limlarini;

- talabalarining o'quv faoliyatini haqiqiy o'quv jarayoniga yaqinlashtirishni;
- ta'lim va tarbiya berish jarayonining birligini;
- faoliyatni o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi va boshqarilishi hamda talabalar tomonidan amalga oshirilishi;
- mashg'ulotlardan keng miqyosda foydalanish;

O'yinli mashg'ulotlarda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi kerak:

- bo'lajak mutaxassislariga kasbiy faoliyat to'g'risida bir butun tushuncha berish;

Kasbiy predmet hamda ijtimoiy tajriba haqida yakka tartibda birlashib qaror qabul qilishni o'zlashtirish;

- kasb bo'yicha nazariy va amaliy fikrlashni rivodlantirish;
- kasbiy moyillikni shakllantirish va uning hosil bo'lishiga sharoit yaratish.

O'yinli mashg'ulotlarning an'anaviy usullardan sifat jihatdan farqi shundaki, bunda o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikda bor muammoni echishga kelishi natijasida kasbiy faoliyat qonuniyati hosil bo'ladi. O'yinli mashg'ulotlarda talabalar egallagan bilimlarini namoyon eta olishlari kerak;

- kasbiy faoliyatni bir butun holda ko'ra bilish, uning ob'ektini tashkil etuvchi qismlarini ajrata olish;

- pedagogika fanlarining rivojlanishi, maqsadi va holatlarining qayta tashkil bo'lishida ko'rinadigan natijalarni ajrata olishni bilish;
- vazifani bajarish, izohlash va aniq sharoitda maqsadga erishishni ta'minlovchi harakat ta'limini ajrata bilish;
- pedagogika masalalarni echishdagi harakatlarni amalga oshirish;
- natijalarni umumlashtirish va baholash.

O'yinli mashg'ulotlar modeli talabalarning o'quv jarayonida faoliyatni egallashga qaratilishi kerak. O'yinlarni o'tkazishda qo'yilgan vaziyatlar to'liq taxlil etilib, ularni bajarish usullari muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar oldiga aniq o'yinning maqsadi qo'yiladi. Ekspertlar baholaydi. Pedagogik amaliyotda ko'pdan «ta'limning faol shakl va metodlari» atamasi qo'llanila boshlagan. U o'quvchilar o'quv faoliyatining yuksak darajasini ta'min etuvchi qator pedagogik texnologiyalar guruhini o'zida uyg'unlashtiradi.

So'nggi vaqtlarda esa yana bir atama keng tarqalgan bo'lib, u – «interfaol ta'lim»dir. Interactive Learning atamasi ingliz tilida ta'lim subekti (o'qituvchi, trener, rahbar, boshqaruvchi) bilan faol aloqadorlikka asoslangan *ta'lim* ma'nosini anglatadi. Mohiyatan u kommunikativ texnologiyaning variantlaridan biri (model)ni bildiradi. Boshqacharoq qilib aytganda, interfaol ta'lim – ta'lim obekti va subekti o'rtasidagi a'lo darajada tashkillashtirilgan o'zaro hamkorlik munosabatidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro ikkiyoqlama (teskari) axborot almashinuviga asoslanadi.

V.V.Guzeevning fikricha, interfaol texnologiya o'quvchilarni ularni o'rab turgan axborot muhiti bilan o'zaro axborot almashinuvidir. Axborot almashinuvining uch xil tartibini ko'rsatish mumkin:

**Ekstrafaol tartib:** axborot oqimi subektdan (o'rgatuvchidan) obektga (o'rganuvchiga) yo'naltiriladi, lekin u obektning ichki qatlamiga daxl qila olmagan holda, asosan uning atrofida aylanadi. O'quvchi passiv o'rganuvchi holida namoyon bo'ladi. Bu rejim ma'ruza-dars yoxud ta'limning an'anaviy (pedagogik jarayonni nazoratsiz, loyihalamay boshqarish) texnologiyalariga xos. U

sust, passiv bo'lib, bolaning subekt sifatidagi faolligini qo'zg'amaydi. Bunda o'qitish o'rgatuv muhitining faolligi (ekstafaollik) hisobigagina amalga oshadi.

**Intrafaol tartib:** axborot oqimi o'quvchi yoki guruhga yo'naltiriladi, ichki qatlamda berkinib yotgan aqliy faoliyatni qo'zg'aydi. O'quvchilar ushbu o'rinda o'zi uchun o'rganuvchi, o'z-o'zini o'qituvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tartib mustaqil faoliyatga, o'z-o'zini o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga xosdir.

**Interfaol tartib:** bu holatda axborot oqimi ongga daxl qilib, kuchli faoliyatni qo'zg'aydi va o'quvchi tomonidan o'qituvchiga nisbatan ikki yoqlama teskari axborot oqimini vujudga keltiradi. Shu tarzda axborot oqimi o'z yo'nalishida almashinib, yoki ikki yoqlama, ham o'qituvchi, ham o'quvchiga xos bo'lib, (javobli) tavsifga ega bo'lgan holda amal qiladi. Bu tartib interfaol texnologiyalarga xosdir.

**Interfaol texnologiyalar shunday ta'lim tartibiga xoski, bunda o'rgatuvchi tizimga nisbatan o'quvchi doimiy subekt-obekt munosabatlarida faol tarzda namoyon bo'ladi va uning davriy faol elementiga aylanadi.** Interfaol texnologiyalarga soddaroq misol qilib suhbat yoki maslahatlarni keltirish mumkin. Aksariyat interfaol tartib aniq monotexnologik tarkibga kiruvchi texnologik usullarda amalga oshiriladi. Masalan: rivojlantiruvchi ta'lim asnosidagi muammolilik, Shatalovning o'zaro so'rovnomalari, o'yinli vaziyatlar va b.

### **Texnologiyalarning tasnifiy parametrlari**

**Tatbiq etish tavsifi va darajasi:** har qanday pedagogik texnologiya u yoki bu bosqichdagi interfaollikka ega, lekin ulardan ayrimlarigina interfaol tartibga bevosita daxldor bo'lib, uni barqaror komponent sifatida o'ziga singdirgan bo'ladi. Bunday texnologiyalarga kichik texnologiyalar (mikrotexnologiyalar)ni, agar muayyan bir o'quvchi nazarda tutilsa, didaktik, tashkiliy-faoliyatli o'yin tarzidagi lokal-modullar, jamoaviy-ijodiy ishlarni keltirish mumkin; makrotexnologiyalar (masofali ta'lim, kompyuter texnologiyalari, suhbatlashish asnosida chet tiliga o'rgatish), shuningdek, ijtimoiy tarbiya texnologiyalari, davlat-ijtimoiy boshqaruvi, telekom-munikasiya, tarmoqli texnologiyalar interfaol tavsifga ega.

**Falsafiy asoslari:** gumanistik, tabiatga moslik.

**Metodologik yondashuvi:** kommunikativ.

**Rivojlanishdagi asosiy faktorlari:** sosiogen.

**Tajribaga asoslangan ilmiy konsepsiyasi:** assosiativ-reflektorli.

**Shaxsiy sfera va tuzilmaga yo'naltirilganligi:** axborotli.

**Mazmun tavsifi:** variativ-moslashgan

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi:** kuzatish.

**O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish turi:** o'zaro o'rgatish.

**Asosiy amal qiluvchi metod:** dialogik.

**Tashkiliy shakli:** barcha shakllar.

**Asosiy amal qiluvchi shart-sharoitlar:** verbalHdasturli Haudiovizual H elektron.

**Tarbiyaviy o'zaro ta'sir tavsifi va bolaga nisbatan yondashuv:** interfaol, demokratik, hamkorlik.

**Zamonaviy yo'nalishi:** faollashtirish.

**Kategoriya obektlari:** barcha obektlar.

### **Maqsadga qaratilgan yo'nalishlar**

- \* O'quvchilarda individual aqliy jarayonlarni faollashtirish.
- \* O'rganuvchining ichki dialogini qo'zg'ash.
- \* Almashinuv predmeti bo'lmish axborotlarning tushunilishini ta'minlash.
- \* **Pedagogik o'zaro aloqadorlikni** individuallashtirish.
- \* Ta'lim subekti nuqtai nazariga nisbatan o'quvchilarning xulosalari.
- \* O'qituvchi va o'quvchining ikki yoqlama teskari aloqasi (axborot almashishi)iga erishish.

Interfaol texnologiyani qo'llash jarayonida o'qituvchining vazifasi o'quvchini qo'llab-quvvatlash (fasilitasiya) – axborot alamashishida o'quvchini quyidagicha yo'naltirish va yordam ko'rsatishdan iboratdir:

- turli-tuman nuqtai nazarlarni yuzaga chiqarish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchisining shaxsiy tajribasiga tayanish;
- amaliyotni nazariya bilan uyg'unlashtirish;

- ishtirokchilarning tajriba almashinishi va shu asosda ular bilimni boyitishga erishish;
- ishtirokchilarning o'zlashtirishi, o'zaro bir-birini tushunishini engillashtirish;
- ishtirokchilarning ijodkorligini rag'batlantirish.

### **Konseptual yondashuvlar**

- \* Axborot sust (passiv) rejimda o'zlashtirilmay, balki muammoli vaziyatlar qo'llanilgani holda interfaol maromda faol o'zlashtirilishi kerak.
- \* Interfaol muloqot aqliy rivojlanishni tezlashtiradi.
- \* Teskari aloqa natijasida axborot beruvchi va oluvchi o'zaro kommunikativ rollarini almashtiradi. Boshida qabul qiluvchi bo'lgan shaxs keyin jo'natuvchiga aylanadi va bu jarayonda axborot almashuvi bosqichlari yuzaga keladi.
- \* Teskari aloqa axborot almashuvi (o'quv, tarbiyaviy, boshqaruv) samaradorligining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.
- \* Ikkiyoqlama axborot almashinuv sekinlik bilan amalga oshsa-da, nisbatan aniq xarakterga ega bo'lib, olingan ma'lumotlar interpretasiyasining haqqoniyligiga ishonchni kuchaytiradi.
- \* Qayta aloqa axborot almashinuv samaradorligini kuchaytirish imkoniyatini oshiradi.
- \* Bilimlarni nazorat qilish real shart-sharoitlarda ularni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutmog'i lozim.

### **Tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**

Interfaol texnologiyalar o'quvchining (ta'lim oluvchining) to'g'ridan-to'g'ri uni o'rab turgan o'quv muhiti bilan o'zaro ta'siriga asoslanadi. Bunda o'quv muhiti real borliq sifatida namoyon bo'lib, o'quvchi tajribalar o'zlashtirish uchun muayyan sohani topa oladi, bunda nafaqat empirik kuzatuv, balki yordamchi material va qo'shimcha illyustrasiyalar sifatida namoyon bo'ladigan hayotiy taassurotlar nazarda tutiladi. O'quvchi tajribasi – o'quv tafakkurining asosiy faollashtiruvchisidir. An'anaviy ta'limda boshqaruvchi (o'qituvchi, trener «filtr» rolini o'ynab o'quv-axborotlarini bevosita o'z ichidan o'tkazadi, interfaol ta'limda

esa u axborotlar oqimini o'zaro yo'naltirishni faollashtiruvchi yordamchi va qo'shimcha faktor sifatida namoyon bo'ladi).

An'anaviy ta'lim bilan solishtirilganda ta'limning interfaol ta'lim modelida asosiy bilan noasosiy (ikkilamchi) element o'zaro ta'sir almashinadi: uning faolligi o'quvchining faolligiga o'rin bo'shatadi. Bunda bosh vazifa o'quvchilarning tashabbuskorligiga sharoit yaratishdir. Interfaol texnologiyalarda o'quvchi teng huquqli ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi, uning orttirgan tajribasi endigi vazifasi tayyor bilimlar berishdan iboratgina bo'lmay, balki o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish bo'lgan ta'lim boshqaruvchisining tajribasidan ko'ra kamroq ahamiyat kasb etmaydi.

O'qituvchi (boshqaruvchi, trener) interfaol texnologiyada birmuncha asosiy rolni ado etadi. Bunday ta'lim jarayonida o'qituvchi axborot muhitining u yoki bu sohasida ishtirokchilarning o'zaro ta'sirini vujudga keltiradi. Informator-ekspert rovida o'qituvchi matn materialini bayon qiladi, videoqatorlarni namoyish etadi, ishtirokchilarning savollariga javob qaytaradi, jarayonning natijalarini kuzatadi va b. Tashkilotchi-fasilitator rovida ijtimoiy va fiziologik muhitni tartibga soladi (guruhni taqsimlaydi, ishtirokchilarni mustaqil manbalar yig'ishga safarbar qiladi, vazifaning bajarilishini muvofiqlashtiradi, mini-taqdimotlarni tayyorlaydi va h.k.). O'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirokchilarning kasbiy tajribalariga tayanadi. Yangi vazifalarni mustaqil ravishda qo'yishga, qo'yilganlarini esa hal etishga yo'naltiradi.

Ba'zi interfaol texnologiyalarda boshqaruvchining tegishli o'quv predmetidan mutaxassis bo'lishi shart bo'lmay, hatto ba'zi holatlarda uning mustaqil fikri axborot almashinuvning tabiiy kechishiga xalal berishi ham mumkin.

Interfaol tartib asnosida chalg'itish manbai quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- nutq (verbal yoki noverbal)ga oid kamchiliklar;
- axbotlarni kodlash va qayta kodlash jarayonida qabul qilishning turli-tumanligi;

- boshqaruvchi (rahbar) va o'quvchi (bo'ysinuvchi)ning nufuzlari o'rtasidagi farqlar.

Tadqiqot ishlariga tayyorlovchi, ularni zarur sohalarga yo'naltiruvchi, olingan bilimlar vositasida tafakkur yuritishga o'rgatuvchi vosita sifatida o'quv materiallarini grafik tashkil etish ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri tarzida namoyon bo'lishi lozim.

Texnologiyaning vositalari har qanday bilim sohasiga oid axborot (ma'lumotlar)lar bilan ishlash imkonini beradi, demak ular bilan tanishishni barcha o'quv fani doirasida yo'lga qo'yish mumkin.

**Klinika metodikasi.** «Klinika metodikasi» qo'llanilganda har bir qatnashchi muammoni hal qilishga qaratilgan o'z variantini ishlab chiqadi va muammoli vaziyatni echishga qaratilgan o'z tashxis («diagnoz»)ini ochiq muhokamaga qo'yadi. Ushbu echim munozara boshqaruvchisi va maxsus saylangan xay'at tomonidan ball shkalasi yoki «yoqimli-yoqimsiz» tarzidagi mezon asosida baholanadi.

**«Labirint metodikasi».** Mazkur metodikani ketma-ketlikda muhokama qilish deb ham atashadi, u o'zicha qadam-baqadam tashxis qo'yishga o'xshab ketadi, ishtirokchilar birin-ketin o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda ishtirokchilar tomonidan har qanday, hatto natijasizlikka sabab bo'ladigan echimlar ham aytilishi mumkin.

**Estafeta metodikasi.** O'z fikrini bildirgan ishtirokchi o'zidan so'ng so'zni munosib ko'rgan kishisiga berishi mumkin.

**Erkin harakatlanadigan munozara.** Ushbu tipdagi munozara mazmuni shundan iboratki, guruh hech qanday natijaga kela olmaydi, lekin guruh qatnashchilarida faol munosabat ichdan davom etadi. Bunday muolaja (prosedura) asosida tugallanmagan faoliyatni eslashning yuksak sifatiga o'tishi bilan tavsiflanadigan «Zeygarnik effekti» yotadi. Ya'ni ishtirokchilar munozaradan so'ng ham unda echilmay qolgan g'oyalar haqida fikrlashda davom etadilar.

To'g'ri tashkil qilingan munozara to'rt rivojlanish bosqichidan o'tadi: bular yo'naltirish (orientasiya), baholash, konsolidasiya (to'plash, jamlash, kelishish), refleksiv tahlillardir.

**Yo'naltirish** bosqichida munozara ishtirokchilari muammoga va birlariga moslashadilar yohud belgilangan muddat davomida muammo echimi uchun muayyan ko'rsatmalarni ishlab chiqadilar.

**Baholash bosqichi** qiyoslash, kelishmovchilik (konfrontsiya) va hatto g'oyalar to'qnashuvi tarzida kechadi. Agar munozara oqilona boshqarilmasa, muammoli vaziyat shaxslararo ziddiyat (konflikt)larga olib kelishi mumkin.

**To'plash, jamlash, kelishish (konsolidasiya) bosqichi** o'zicha alohida mushohada yoki kelishuvchanlikka moyil fikr, yondashuv va echimlarni nazarda tutadi.

### **Refleksiv tahlil va natijalarni keltirish**

Munozaraning asosiy mohiyati – uning tahlilida ko'rinadi. Mashg'ulot natijalari keltiriladi, munozara asosida chiqarilgan xulosalar tahlil etiladi, muammoni to'g'ri anglashning asosiy momentlariga urg'u beriladi, aytilgan fikrlardagi mantiqiylik va xatolar, ayrim fikrlarning munozara mavzusiga mos kelmasligiga e'tibor beriladi va h.k. Shuningdek, so'zlovchi nutqining mazmunan boyligi, dalillarning ilmiyligi va chuqurligi, fikriy ifodalarning aniqligi, tushunchalarning to'g'ri qo'llanilishi kabilarga diqqat qaratiladi. Savollarga javob bera olish layoqati, dalillarni to'g'ri qo'llash usuli, ifodalarning nutq sharoitida o'rinli qo'llanilganiga baho beriladi.

Ikkiyoqlama aloqani yo'lga qo'yish uchun munozara ishtirokchilarining og'zaki va yozma o'z-o'ziga hisobotlarini olish mumkin. Bunday o'z-o'ziga hisobotning ikki turi mavjud. 1) erkin; 2) muayyan savollar asosida: hisobot quyidagi savollar asosida tuzilishi mumkin: men munozara davomida nimalarni his qildim; men nimalar haqida so'zlashni istagan edim; o'z fikrimni bayon qilishga menga kim (nima) halal berdi; men o'zim uchun nimalarni kashf qildim; munozara meni qiziqтира oldimi; nima sababdan munozara menga qiziqarli tuyuldi yoki

aksincha nima uchun munozara meni qiziqitirmadi; munozara davomida orttirgan (ijobiy yoki salbiy) tajribamni qanday qilib qo'llashim mumkin?

### **Munozaradan kutiladigan natijalar:**

- a) munozara qatnashchilarining fikrini tushunish, unga hurmat bilan qarash;
- b) munozara chog'idagi qarama-qarshilik muammoni echishning samarali variantini topish imkoniyatini yuzaga keltirishi;
- v) konstruktiv ziddiyatlarni hal qilish asnosida ishtirokchilarda mashg'ulot rahbariga umumiy ishdagi teng sherik va hamkor sifatida qarash va yaqin munosabatning vujudga kelishi.

### **Munozara davomida yo'l qo'yiladigan cheklanishlar:**

- boshlovchining to'g'ri javobni bilganligi tufayli hukmron mavqeni egallashi, qolganlar esa bu javobni topishlari lozim;
- ishtirokchilarning boshlovchiga so'zsiz ishonishlari. Bunday holatda haqiqat yagona obro'li shaxsga bog'liq bo'lib qoladi;
- rag'batlantirishdagi cheklanishlar: boshlovchi bir ishtirokchini maqtab, boshqasini xafa qilib qo'yishi mumkin;
- munozara mavzusidan chalg'ib, mavhum muammolarga o'ralashib qolish;
- ko'pincha ayrim ishtirokchilar (3-4 ta) boshqalarni «unutib», faqat o'zlari gapiradilar, qolgan ishtirokchilarga so'zlash uchun imkon bermaydilar.

### **Mashg'ulot rahbariga tavsiyalar:**

- chalg'imag, to'satdan eksrompt tarzida fikrlar bildirmay, maqsadga tomon doimiy intilishni saqlab qolish;
- o'ta faol, sergap yoki aksincha passiv, kamgap ishtirokchilar o'rtasidagi ruhiy muvozanatni nazorat qilish.

### **Munozaraning umumiy tamoyillari:**

- tenghuquqli subekt-subekt munosabatlari;
- «Men – yaxshiman, sen - yaxshisan» yondashuvi (E.Bern);
- «Meni to'g'ri tushuning» yondashuvi;

- haqiqat hamma narsadan ustun;
- qisqalik – talantning egachisi;
- fikrlar bayonida do'stona munosabat va hurmatni saqlash.

### **Munozarada o'zini tutish qoidalari:**

- men g'oyalarni tanqid qilyapman, odamlarni emas;
- men har qanday mulohazani tinglayman, hatto bu fikrlarga qo'shilmasam ham;
- men avvalo qarama-qarshi fikrlarni tushunib olishga harakat qilaman, so'ng ular haqida fikr bildiraman;
- men muammo yuzasidan bildirilayotgan barcha qarashlarni tushunib va anglab olaman;
- men ishonarli dalil-isbot va ta'sir natijasida o'z nuqtai nazarimni o'zgartira olaman.

### **«Mumtoz debatlar» o'yini.**

Munozara ishtirokchilarning muhokama etilayotgan muammo haqida to'g'ridan-to'g'ri qarshi fikrlar bildirishga asoslangan va oldindan tayyorlangan chiqishlari asosida o'tkaziladi.

**O'yinga tayyorgarlik ko'rish** muayyan mavzu (tezis) tayyorlashdan boshlanadi.

Mavzu tanlashda uning «yaxshi» - ya'ni, ijobiy mazmunda bo'lishiga e'tibor berish kerak:

- u debat ishtirokchilari uchun qiziqarli va dolzarb bo'lsin;
- komanda qatnashchilariga o'z fikrlarini asoslash uchun etarlicha dalillar to'plash imkoniyatini bersin;
- mavzu aniq shakliy holat mantiqiga ega bo'lsin;
- tadqiqotchilik faoliyatini qo'zg'asin;
- uni qo'llab-quvvatlash uchun mos ijobiy jihatlarga ega bo'lsin.

### **Mavzu yuzasidan yig'ilgan ma'lumotlar ustida ishlash.**

- o'quvchilar bilimini faollashtirish (aqliy hujum);
- turli manbalardan axborot topish;

- olingan materiallarni tizimga solish;
- tezislarda ifodalangan fikrlarni ma'qullovchi yoki ularga qarama-qarshi mazmundagi keyslar (dalillar tizimi)ni ishlab chiqish, savollar tayyorlash va b.

**Umumiy hamda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish:**

- dalillash, qo'llab-quvvatlash, material yig'ish;
- savollarni to'g'ri qo'ya bilish;
- mantiqiylik va nutq malakalarini egallash va ularni amaliyotda qo'llay olish;
- guruh tarkibida (autotrening va relaksasiyalarda) samarali ishlash.

Komandalarning debat jarayonidagi asosiy vazifalari – hay'at a'zolari va tomoshabinlarni o'z fikrlariga hayrixoh qilishga erishishdan iborat bo'lib, komanda a'zolari fikrlarini dalillab izohlash va raqibga qarshi dalillar keltirish orqali bunga erishiladi. Masalan, debat «Davlat kambag'al fuqaroga g'amxo'rlik qilishi kerak» mavzusida o'tkazilayotgan bo'lsa, bir komanda ushbu tezisni ma'qullab, boshqasi esa unga qarama-qarshi fikr asosida («Davlat kambag'al kishiga g'amxo'rlik qilishga mabur emas») o'z qarashlarini dalillar bilan izohlaydilar.

Komanda tarkibi 3 kishidan iborat bo'ladi. Ularning har biri «spiker» deb ataladi. Shunday qilib **Tasdiqlovchi komandadan** 3 spiker (T1-birinchi spiker, T2 - ikkinchi spiker, T3- uchinchi spiker), **Inkor etuvchi komandadan** 3 spiker (I1- birinchi spiker, I2- ikkinchi spiker, I3- uchinchi spiker) ishtirok etadi. Tasdiqlovchi komanda hakamlarga mavzuni tasdiqlash uchun, inkor etuvchi komanda esa uni inkor etish uchun dalillar keltiradilar. Har bir komanda a'zosi o'zi uchun belgilangan rolni o'ynaydi. Bunda o'quvchining shaxsiy nuqtai nazari unchalik ahamiyatga ega bo'lmaydi. Spikerlarning rollari va o'yinning qoidalari qat'iy xarakterga ega bo'lib, uni buzish umkin emas. Bu xil cheklashlar spikerlar chiqishiga belgilangan muddat va chiqishlarning izchilligini ta'minlashga qaratiladi.

## II BOB BO`YICHA XULOSALAR

1. O'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo'llash pedagogik metodikalarning boyishi pedagoglar mehnat faoliyatining o'zgarishi ish usublarning takomillashishini, pedagogik bilimlar tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayonni boshqarishni tashkil etishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi: zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida pedagogik jarayonni samarali tashkil etishligi; o'quvchilar o'rtasida mehnatning taqsimlanishi; masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar va komp'yuter dasturlari mutaxassislarining birlashuvi; pedagogik jarayonni tashkil etishni takomillashtirish va o'qituvchilik faoliyati samaradorligini moniyiligini taqozo etadi, buning uchun dars metodikasi va texnikasini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan.

2. Ta'limning yangi - XXI asr jarayoni jamiyatdagi o'zgarishlar, ilmiy texnikaviy progress, axborot va kommunikasiya vositalarini shakllantirish tufayli uni texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Ana shunday vositalardan biri interfaol doskalardir. Bugungi kunda interfaol doskalar Smart Board, Star Board nomlari bilan ishlab chiqilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimi istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan multimediali texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning asosiy talabi hisoblanada, Masofaviy o'qitishda samarali hisoblangan texnologiyalardan biri, bu hamkorlikda o'qitishdir. Hamkorlikda o'qitish, bu ta'lim oluvchilar birgalikda, kollektiv tarzda loyihalab, bilimlarni tayyor xolida uning obektivligini ochmasdan foydalaniladigan hamkorligidagi ta'lim olishdir.

3. Pedagogik o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda ular fanning maqsadi, fazifasi va xususiyatiga qarab tanlab olinadi. Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'lishi mumkin: a) didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi; b) o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi; v) o'quv materiallaridan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi; g) o'quv jarayoniga qo'yilgan didaktik vazifaga o'yinga almashtirilgan tarzdagi musobaqalashtirish unsurlari kiritiladi. Bu didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi. Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari pedagogik jarayon xarakteri, o'yin

metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti kabi omillar bo'yicha tasnif qilingan. Muloqot jarayonida tomonlar bir-birlarini turli xil sharoit va ko'nikmalarda o'rganib borishadi.

## TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning o'рни va ahamiyatini yoritish maqsadida tadqiqot olib bordik. Tadqiqot ishini Jizzax \_\_\_\_\_ o'tqazdik. Bunda bizga maktab psixologi va o'qituvchilar yordam berdilar.

Pedagogik amaliyot boshida dastlab ushbu o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini o'rgandik hamda \_\_\_\_\_ fanidan mashg'ulotlarini kuzatdik. Fanni o'zlashtirish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlar tashkil etdik.

An'anaviy va noan'aviy dars o'tish masalasida davra suhbatlari tashkil etdik va hozirgi kunda ta'limda pedagogik texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati yuzasidan bir qator ilmiy fikrlarga ega bo'ldik.

Tadqiqotni yanada oydinlashtirish va aniq dalillarga ega bo'lish maqsadida \_\_\_\_\_ dan \_\_\_\_\_ larini tanlab oldik. Har ikki sinfda \_\_\_\_\_ tadan o'quvchi bo'lib rivojlanish darajasi (fikrlashi, pedagogik-psihologik jarayonlari) deyarli bir hil. \_\_\_\_\_ni nazorat guruhi deb oldik. Ushbu sinflarda fanlardan \_\_\_\_\_ga mashg'ulotlarda an'anaviy o'qitishdan foydalandik. \_\_\_\_\_da o'qitishni pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshirdik.

Tadqiqotni boshlashdan oldin guruhlar ogohlantirildi, tadqiqotning mazmuni bilan tanishtirildi. Xar bir mashg'ulotlari o'qituvchining fan dasturi va ishchi dasturi asosida olib borildi. Xar bir dasrda pedagogik texnologiyalarning turli usullari qo'llandi. Mart oyidan boshlab maygacha tadqiqot ishi davom etdi. Tadqiqot yakunida \_\_\_\_\_ fanlaridan test olindi. Testdan ma'lum bo'ldiki haqiqatdan pedagogik texnologiyalarini o'qitishda qo'llash muhim ekan. Dars jarayoniga turli texnologiyalarni tadbiq etish o'quvchilar o'zlashtirishini yaxshiladi, sifat ko'rsatgichini ko'tardi.

**Tadqiqotni o'tkazishda pedagogik texnologiyalarning quyidagi usullaridan foydalandik.**

1. Fikriy hujum
2. Yalpi fikriy hujum
3. Fikrlarning shiddatli hujumi
4. Aqliy hujum
5. Klaster
6. Qarorlar shajarasi
7. Rasmlarni to'g'ri joylashtir.
8. Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash.
9. Yumaloqlangan qor o'yini
10. Zakovatli zukko
11. Qarama-qarshi munosabat.
12. Bilaman, bilishni hohlayman, bilib oldim.
13. Zig-zag strategyasi.
14. Ven diagrammasi.
15. Insert strategyasi.
16. Rolli hamda ishbop o'yinlar.

Bunday interfaol usullar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishda yordam beradi. Bu usullarni qo'llash natijasida quyidagi natijalarga erishdik:

**Birinchidan**, pedagogik faoliyat ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligi oshdi.

**Ikkinchidan**, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik qaror topdi.

**Uchinchidan**, o'quvchilar tomonidan o'quv predmetari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishi ta'minlandi.

**To'rtinchidan**, o'quvchida mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllantirildi.

**Beshinchidan**, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Shu bilan birga pedagogik amaliyot davomida maktabdagi dars jarayonlarini ham kuzatdik. Maktabda darslarni ko'rgazmalar, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi o'quvchilarning darsga, fanga nisbatan qiziqishlarini oshirishiga amin bo'ldik. 5-sinflarda o'tilgan tarix fanidan o'tilgan "Dukchi Eshon qo'zg'oloni" mavzusini o'tilishini kuzatdik. Darsda o'qituvchi suhbat, savol-javob, test, qora quti, klaster usullarini qo'lladi.

Darslarning bunday tashkil etilishi o'quvchilarni faollikka, mustaqil harakat va mustaqil fikrlashga undadi. O'tilgan mavzuni mustahkam egallaganliklarini keyingi darsda o'qituvchi tomonidan so'ralganidan va o'quvchilar baholaridan bilib oldik.

## XULOSA

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqorolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo`lgan yoshlarni tarbiyalashda sog`lom ijtimoiy muhitni yaratish, ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e`zozlash muhimdir<sup>1</sup>. Prezidentimiz aytganidek, faqatgina ma`rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so`z bilan aytganda, o`zlarini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatimida o`ziga munosib, obro`li o`rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashish mumkin.

Hozirgi jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichida o'rta va oliy maktab faoliyati, pedagogika oliy yurtlari oldiga milliy maktablar uchun o'qituvchi xodimlarni tayyorlashni mukammallashtirish vazifasini qo'ydi.

O'qituvchi bugungi kunda hayotimizni yangilashda etakchi, har tomonlama ma'lumotli mutaxassis, xalqiga va vataniga sadoqatli, pedagogik maxoratni egallagan, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs bo'lmog'i kerak. Talabalarning kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshirish uchun pedagogik-psixologik o'sishni o'rganishga, pedagogik hodisalar danyosiga kirishga o'rgatish kerak. Pedagogik faoliyat asosi ta'lim va tarbiya san'atini ilmiy ochib berishni o'z ichiga qatrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, totalitar ideologiya illatlaridan qutulib, mustaqillik milliy mafkurasini shakllantirish imkonini pedagogik boshqarmalarda psixologiya fanini va uning pedagogik oliy o'quv yurtlarda o'qitishning yangi kontsepsiyasini aniqlab olishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ilmiy ipormalizm, turli xil falsafiy, ijtimoiy va psixologik yo'nalishlar, g'oyalar qiymatini oshkora solishtirishga imkoniyat yaratildi.

Hozirgi bosqichda ta`lim jarayonida asosiy maqsadi o`quvchilarni kelgusidagi kasbiy faoliyatiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash vazifalarini yaqqol hal etishdan iborat.

---

<sup>1</sup> **Karimov I. A.** Biz kelajagimizni o`z bilan quramiz. 7 jild T.: O`zbekiston 134-b

Pedagogikada o'rganilayotgan pedagogik muammolar, tabiatni bilish, emotsional va irodaviy faoliyat qonuniyatlari, odamlarning u yoki bu tarzda munosabat o'rnatishi uchun muhimdir. U asosan kamol topib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berish amaliyotida albatta kerak. Shaxs rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish, tarbiya va ta'limning anchagina samarali usullarini ishlab chiqish uchun imkon beradi.

Pedagogik texnologiya - texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish va aniqlashning tizimli metodidir.

Biz o'z tadqiqotlarimizda pedagogik texnologiyalarning dars jarayonidagi ahamiyatini ko'rib chiqdik. Pedagogik texnologiyalarning afzalligi, zamon sinovlaridan o'tganligini, darslarning sifatli va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishiga bevosita darsda qo'llash jarayonida amin bo'ldik.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash dars jarayonida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda dars davomida barcha o'quvchilarning faolligini ta'minlab berdi. Odatda, o'qituvchi dars mavzu yuzasidan ko'p gapiradi, nazariy shunuchalar beradi. Bunday bilim o'quvchining xotirasida qay darajada qoladi, talaba har bir ma'lumotni esda saqlab qoladimi, bu jarayonda pedagogik texnologiyalar qo'llansa qanday natijalarga erishamiz? Degan savollarga tadqiqotimiz davomida javob topa oldik.

Dars jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni samarasini o'quvchilarning bilim olishdagi harakatlarida mustaqil fikrlashning ortishida, mustaqil ishlash ko'nikmalarining shakllanishida kuzatdik. Ana shunday mustaqil ko'nikmalarining shakllanishi, kelajakda o'z kasblari ustida ishlab, yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq etib, ijobiy natijalarga erishishlari mumkin.

Namuna bo'la olidigan pedagog muvaffaqiyatining siri nafaqat pedagogik texnologiyalarni qo'llashda, balki mahoratida bolalar qalbiga yo'l topa olishida ham ko'rinadi. Darsda pedagogik texnologiyalarni qanchalik zo'r darajada

qo'llamasin pedagogik mahorati ham muhimdir. Biz bunga tadqiqotimiz davomida amin bo'ldik. Shu bilan birga pedagogik texnologiyalarni qo'llashni afzalliklarini bildik. Bularning sodda va oson, esda qolarli; vaqtdan yutamiz; qiziqarli bo'ladi; mustaqil fikrlashni o'rgatadi, xotirani yaxshilaydi, izlanishga chorlaydi; talabalarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi kabilar.

Dars jarayonida qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar berilayotgan ta'limni o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mustaqil fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari kommunikativ qobiliyatlarning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar echimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarni fikrini tenglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rganishiga olib keldi. Shu bilan birga o'quvchilarda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishi hamda ijodkor bo'lishga olib keldi.

Yana shu narsaga amin bo'ldik, pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirdi. Tanqidiy fikrlayotgan o'quvchi muammo bo'yicha echim topadi va bu echimni asoslangan dalillar bilan mustahkamlashga harakat qiladi. Ayni paytda u, o'zining qaroridan ham boshqacha echim borligini idro etadi.

## TAVSIYALAR

Turli metodlarni qo'llash, pedagogik va psixologik taxlil qilish, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish insonlarning emotsional holatlarini tushunishi, insonlarga ta'sir eta bilish, o'quvchilarga individual yondashish kabi malaklarga ega bo'ldilar.

Ushbu hulosaga yakun yasagan holda o'quv-tarbiya jarayonida ham o'qituvchi ham o'quvchilar uchun zarur bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- uzluksiz ta'limni tashkil etish jarayonida har bir o'quvchining shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etish va yaratish;

- o'qituvchi, pedagoglar bilim saviyasini, malakasini oshirish va yangi samarali pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish;

- ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, erkin fuqaroni, o'h huquqiy ongini shakllantirish uchun zarur sharoit yaratish.

- ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish va nazorat qilish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasida uzviy hamkorlikni tashkil etish, o'quvchilarda psixologik faniga nisbatan qiziqishni uyg'otish va bu borada yangi zamonaviy uslub, vositalarni ishlab chiqish.

- ta'limni ijtimoiylashtirish bunda o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi, shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari hamda hayotiy intilishlari ko'lami kengayadi.

- ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish. Zero, har bir jamiyatning intellektual salohiyati shu davlatning texnologik qudrati va moddiy farovonligining asosidir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, birinchi navbatda, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati va ushbu dasturga asosan yosh avlodni yangi pedagogik texnologiyalar asosida har tomonlama etuk va barkamol shaxs sifatida kamol toptirish kabi vazifa kim bo'lishimizdan qat'iy nazar har birimizning burchimizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: “Adolat”, 2010.

### II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

2. 2009 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2010 yil.

### III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston» 1997

4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 2005.

5. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir”. T.: O'zbekiston, 2007 .

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.;Ma'naviyat, 2008.

7. Karimov I.A. «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» T.: O'zbekiston, (2009).

8. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» T.: O'zbekiston, (2009).

9. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. T.: O'zbekiston, 2010.

11. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. T.: O'zbekiston, 2010.

10. Karimov I.A. «Bizning ezgu maqsadimiz – taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishdan iborat» T.: O'zbekiston, (2010).

11. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir» T.: O'zbekiston, (2010).

12. Karimov I.A. «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» T.: O'zbekiston, (2011).

13. Karimov I.A. «O'zbekiston Mustaqilikka erishish ostonasida». T. O'zbekiston 2011

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari**

14.2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2011 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2011 yil.

#### **V. Darsliklar.**

##### **O'zbekiston Respublikasida chop etilgan**

15. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Qarshi. Nasaf. 2000.

16. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).-Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003.

17. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash manualari.-Toshkent: RTM. 2000.

18. Tolipov O`. Ta'lim: O'qituvchi va o'quvchi faoliyati // Sog'lom avlod uchun j. 2000. №7-8.

#### **VI. O'quv qo'llanmalari**

19. G'affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. T. 2002 -214s

20. Yo'ldoshev J.G`, Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma.-Toshkent: O'qituvchi. 2004.

#### **VII. Rossiya federasiyasida chop qilingan o'quv qo'llanmalari**

21. Arnautov V.V., Monaxov V.M. Optimizatsiya uchebnogo protsessa.-Moskva: Mixaylovka. MSOP. 1997.

22. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse.-Moskva: Znanie. 1989.

23. Tolipov U.K. Pedagogicheskaya texnologiya v professionalnom obrazovanii uchiteley // Mat. I mejdunarodnoy nauchno-metodicheskoy konf. Tom. II.-Taraz: 1988.

24. SHurkova N.E. Pedagogicheskaya texnologiya.-Moskva: pedagogicheskoe obshchestvo Rossii. 2002.

#### **X. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari**

25. Xakimov N.X. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot va ekologiya. -T.: TDIU, 2006. -94 b.

#### **XI. Gazeta va jurnallar**

26. Tolipov O`. Tajriba-sinov ishlarida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta'limi j. 1999. №2-3.

27. Tolipov O`. Ta'lim: o`qituvchi va o`quvchi faoliyati // Sog`lom avlod uchun j. 2000. №7-8.

#### **XIII. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari**

28. Jizzax Davlat Pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining ma'ruza matnlari. 2009– 2011 yillar.

## I L O V A L A R

### 1-ILOVA

#### “KONSENSUS VA KONFRONTASIYA” ROLLI-ISHCHAN O’YIN

(“Kelishuv va ziddiyat”)

**Texnologiyaning maqsadi:** talaba (yoki o’quvchi)larda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish va bolalar huquqlari muammolari bilan bog’liq bo’lgan tushunchalarini aniqlash.

**Mashg’ulotni o’tkazish ketma-ketligi: 1. O’yinni boshlash.** *Mazkur bosqichning vazifasi:* u yoki bu fikrni to’g’ri ekanligini isbotlash orqali opponentlarni o’z tomoniga og’dirish.

**Mashg’ulotni o’tkazish tartibi:** Talaba (yoki o’quvchi)larga birin-ketin tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko’rsatiladi. Ularga tarqatma materiallarda berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi. Tarqatma materiallardagi fikrlarni qabul qilgan talaba (yoki o’quvchi)lar bir tomondan, qolganlari ikkinchi tomondan joy egallaydilar. Shunday qilib guruh 2 ta kichik guruhlariga ajraladi. Ulardan biri tasdiqlangan fikrni qabul qiladi va uning to’g’riligini isbotlaydi, boshqa guruh esa, opponent bo’ladi. Guruhlarning vazifalari - o’z guruhlariga boshqa guruh a’zolaridan ko’proq kishini jalb etish, ya’ni ularni o’z fikrlarini o’zgartirishga olib kelishdan iboratdir. Har bir tasdiqlangan fikr ustida 5 daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materialdagi tasdiqlangan fikrlar quyidagicha bo’lishi mumkin:

- bolalar huquqlari hech qachon etarlicha himoya qilinmaydi;
- o’zining huquqlarini bilish va uni himoya qilish sharaflidir;
- “Bolalar shaxsiy hayot kechirish xuquqiga egadirlar”. Bu haqiqatni kattalar hech qachon qabul qilolmaydilar;
- o’z huquqlarini himoya qila turib, ba’zida o’zaro ziddiyatlarga ham duchor bo’lishga to’g’ri keladi;
- o’z huquqlarimni himoya qila olaman, turli uslublarni ma’qullay olaman;
- har bir bola uchun o’z huquqlarini bilish o’ta muhimdir;

- mas'uliyat haqida esa bolaga kattalar eslatib turishadi;  
- hamma vaqt mening huquqlarim boshqalar huquqlarini chegaralab turadi;

- huquq doimo javobgarlikni sezishni taqozo etadi;
- bolalar huquqlarini faqat kattalar himoya qila oladilar;
- har bir inson o'z qarashlarini o'zgartirish huquqiga ega;
- kattalar xukuqlari bolalarning huquqlarini chegaralaydi;
- kuchli odam hamisha hakdir;
- erkaklar va ayollar hech qachon teng bo'lmaydilar.

**2. Tahlil.** *Mazkur bosqichning vazifasi:* o'yinni o'tkazish vaqtida o'z holatini tahlil qila olish va quyidagi savollarga javob berish:

- O'yin shartlarini bajarish qiyin bo'ldimi?
- Mazkur ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?
- Bahs - munozara natijasidan qoniqdingizmi?
- Natijaga erishishingizda sizga nima yordam berdi va nima halaqit berdi?

Bu faoliyat hamkorlikda, ko'tarinki ruhda o'tishi, yaxshi natija bilan tugashi va suhbatdosh charchamasligi kerak.

Bahs-munozaralarning natijasini albatta tahlil qilish va baholash kerak. Uning muvaffaqiyati: *birinchidan*, guruhlar va ularning ishtirokchi (hamkor)larini bir-birlariga o'zlarining vaziyatlari va holatlarini tushuntirib, yangi axborotlar olishlariga, *ikkinchidan*, o'zaro munosabat vaqtidagi ziddiyat (yoki salbiy holat)ning bir qismini yo'q qilinishiga erishishlariga, *uchinchidan*, qo'yilgan muammoni echib, o'zaro bir-birlarini tushunishlariga bog'liq.

**1. Murosaga kelishishning kichik guruhda (juftlikda) tashkil etilishi.**

*Mazkur bosqichning vazifasi:* ikki opponont o'rtasidagi u yoki bu fikrni tasdiqlanish roziligiga erishish.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** Talaba (yoki o'quvchi)larga biron-bir tasdiqlangan fikrni tanlash taklif etiladi. Bu birgalikdagi ish quyidagi ko'rinishda: bir kishi tasdiqlovchi, ikkinchi kishi esa, inkor etuvchi bo'ladi. Bu faoliyat

yakunida ma'lum bir juftliklar aniqlanadi (yoki agar kichik guruhda uch kishi bo'lsa, uchta qatnashchi). 10 daqiqa mobaynida konstruktiv bahs-munozara ko'nikmasi yordamida murosa (konsensus)ga erishish kerak.

Muhokama qilish uchun taxminiy savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sizga o'yin shartlarini bajarish qiyin bo'lmadimi?
2. O'yin davomida siz nimalarni his etdingiz?
3. Bahs - munozara natijasidan qoniqdingizmi?
4. Natijaga erishishda sizga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatlariga baho beradi va mashg'ulotni yakunlaydi. Yuqorida misol tariqasida keltirilgan pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida to'laligicha yoki qisman ishlatilishi talaba (yoki o'quvchi)larda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga hamda hayotda uchraydigan turli xil vaziyatlardan oqilona chiqish olish, muammolarni echa olishga yordam beradi.



# ТЕХНОЛОГИЯ

“Технология” – юнонча «**techne**» сўзидан олинган бўлиб, маҳорат, санъат, «**logos**» - сўз, таълимот маъноларини англатади.

“Технология” – ишлаб чиқариш нуқтаи назаридан олиб қараганда объект (предмет, буюм, ҳодиса, жараён, жонли ва жонсиз зот)ларга мақсадга мувофиқ таъсир этиб, унинг хусусияти, шакли, ҳолати кабиларни ўзгартириш маъносини англатади.

# ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИ

- Индивидуал
- Жамоавий
- Белги-контекстли
- Ишбилармонлик ёки ролли ўйин
- Муаммоли
- Ахборот
- Дастурли
- Интегротив
- Модулли
- Муаллифлик
- Ривожлантирувчи
- Масофавий
- Кейс-стади
- Таянч схемаларидан фойдаланиб ўқитиш
- Этнопедагогик
- Фаол ўқитиш
- Ҳамкорлик
- Табақалаштирилган
- Ноанъанавий
- Анъанавий
- Эркин
- Асосий материалларни ажратиб олиб ўрганиш
- Йириклаштириб ўқитиш
- Политехник
- Жадал
- Шахсга йўналтирилган
- Таълим жараёнини тўғри ташкил этиб бошқариш

## *Масофавий таълим технологияси -*

бу масофадан туриб ўқитиш, қайсики ўқув машғулотларининг барчаси ёки кўп қисми телекоммуникацион ва замонавий ахборотлаштириш технологиялар асосида олиб борилади.




36

## *Масофавий таълим принциплари:*

- интерфаоллик;
- индивидуаллик;
- идентификацияланганлик;
- Таълим-тарбия вақтининг чегараланганлиги;
- янги ахборот технология воситаларини қўллашнинг педагогик мақсадга мувофиқлиги;
- таълимнинг ошкоралик ва ўзгарувчанлиги.

37



*Zamonaviy dars deganda – o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy salohiyatini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi.*

### **O'QITISH SHAKLLARI**

| <b>Standart</b>   | <b>Nostandart</b>  | <b>Virtual</b>  |
|---|--|---|
|  <p><i>"Как дорожку осваиваету<br/>Передает мы вам планету!"</i></p> |  |  |

### **O'qitish turlari:**

- **An'anaviy ta'lim**
- **Noan'anaviy ta'lim**
- **Rivojlantiruvchi ta'lim**
- **Muammoli ta'lim**
- **Dasturlashtirilgan ta'lim**
- **Evristik ta'lim**
- **Turli darajali**
- **Modul tizimli**
- **Interfaol ta'lim**
- **Masofali ta'lim**
- **Andragogika**
- **Informal ta'lim**
- **Rasmiy ta'lim**
- **Norasmiy ta'lim**